

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUSTA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`l yozma huquqida
UDK

Ixtiyarov Akmal Axmedovich

**"MARTIN IDEN" VA "SAROB" ROMANLARIDAGI TIPOLOGIK
O`XSHASHLIKLAR VA O`ZIGA XOSLIK**

5A120101 –Adabiyotshunoslik (ingliz)

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar: Rasulov Z.I.

Buxoro-2014

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I bob. XIX asrning oxiri - XXasrning boshida Amerika adabiyotida tanqidiy realizm oqimi va uning yirik namoyondalari	
1. Amerika adabiyotida Tanqidiy realizm oqimining o`ziga xos xususiyatlari ...	9
2. Jek Londonning hayoti va ijodiy faoliyati	12
3. "Martin Iden" - Jek Londonning shoh asari	16
I bob bo`yicha xulosa.....	22
II bob. XX asr o`zbek nasrining buyuk namoyandasi Abdulla Qahhor va uning "Sarob" romani	
1. O`zbek xalqining hayoti, insonning ichki va ruhiy holatini yoritgan adib hayoti va ijodiy faoliyati.....	23
2."Sarob " romani va zanjirband etilgan ichki intilishlar muammosi	30
II bob bo`yicha xulosa.....	44
III bob. "Martin Iden" va "Sarob" romanlari qiyosiy tipologik tahlili	
1.Jek London ijodining o`zbek madaniyatiga kirib kelishi	48
2. "Martin Iden" va "Sarob" romanlaridagi go`yaviy-badiiy yaqinliklar.....	55
III bob bo`yicha xulosa	69
XULOSA	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	74

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, hayotimizning har jabhasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avvalo, respublikamiz iqtisodiyotini isloh qilish jarayoni ildamlab ketdi, chunki iqtisodiyot har bir davlatning tamal toshi, asosi, poydevori sanaladi.

Shuningdek, ta'lim sohasiga ham katta e'tibor qaratila boshlandi, istiqlol yillari davomida ta'lim to'raligicha isloh qilindi. Prezidentimiz I.A.Karimov ko'p marta ta'kidlaganidek, bizning avlodlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lmog'i lozim. O'zbekiston dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan do'stona aloqalarni o'rnatdi, respublikamiz mustaqillikning ilk yillaridan bir qator xorijiy davlatlar bilan teng, ta'lim sohasida va iqtisodiy hamkorlik olib bormoqda, bu esa o'z-o'zidan xorijiy tilda gaplasha olish ehtiyojini tug'diradi. XXI asrda inson o'zini zamonaviy texnologiyalarni va ingliz tilini bilmasdan tasavvur qilishi juda murakkab, chunki ko'plab internet saytlari ingliz tilida, kompyuterlar hayotimizning har jabhasiga kirib kelgan. Hozirgi paytda ingliz tilini o'rganish, bilish va xorij madaniyatidan xabarbor bo'lish juda muhim masala sanaladi¹.

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisidagi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'tmishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integrasiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5- mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

¹ Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2010. – 57b.

Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida mamlakatimizda chet tillarni o'qitishni takomillashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi avlod jahon mamlakatlari taraqqiyotining o'ziga xos globallashuv bosqichida yashamoqda. Bu bosqichda xalqaro aloqalar, mamlakatlar hayotining bir-biriga ta'siri, turli sohalardagi o'zaro munosabatlar, fikr va tajriba almashinuvlari, sintez va uyg'unlashuv har qachongidan ham yuqori bosqichga ko'tarildi. Endi har qanday hodisa ham butunjahon kontekstidagina o'zining tom ma'nodagi bahosini olishi mumkin. Binobarin, adabiyotshunoslikda ham milliy adabiyot asarlarini jahon so'z san'atining nodir namunalariga qiyosan baholash tamoyili kuchaymoqda. Aslini olganda, biror davrda ham o'z qobig'iga o'ralgan adabiyot bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Xalqlar do'stligi, jismoniy va ma'naviy kamolot, o'zaro hamkorlik va birodarlik, halollik singari yuksak gumanistik ideallarni targ'ib etgan san'at va adabiyot hamma davrlarda ham o'zaro ta'sir tamoyili zaminida rivojlanib, taraqqiy qilib borgan. Binobarin, muayyan yozuvchi ijodini jahon

adabiyoti namunalariga qiyosan o`rganish masalasi, birinchidan, milliy adabiyotning, muayyan yozuvchi ijodining dunyo adabiyoti kontekstidagi o`rni belgilash; ikkinchidan, ijodiy individuallik masalasini hal qilish nuqtai nazaridan hamisha dolzarbdir. Shunga ko`ra, mazkur dissertatsion ishda ikki yirik prozaik - Jek London va Abdulla Qahhor ijodi qiyosan tahlil qilindi.

Bundan tashqari, o`zbek adabiyotiga jahon ilg`or adabiyotining ta'siri XIX asr oxiri - XX asr boshlaridan e'tiboran sezilarli bo`lib qoldi. Ijtimoiy-siyosiy yemirilishlar zaminida tarjimachilikning, o`zaro adabiy aloqalarning taraqqiy etishi, rus adabiyoti va adabiyotshunosligi orqali bevosita adabiy ta'sir kuchaydi. O`zbek adabiyotida jahon adabiyoti ta'sirida bir qator janrlar shakllandi va taraqqiy etdi, konkret asarlar maydonga keldi. Umuman, XX asr o`zbek adiblari ijodi, ularning salaf-lari - Sharq mumtoz shoirlari hamda Yevropa va Amerika adabiyoti vakillari ijodidan farqli ravishda, XX asrdagi yangi ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash zaminida sharq va g`arb adabiy an'alarining, Sharq va G`arb tafakkurining murakkab sintezi sifatida maydonga keldi. Garchand XX asrda yashab ijod etgan o`zbek adiblari ijodi g`oyaviy-badiiy jihat-lardan keng tadqiq qilingan bo`lsa ham, bugungi adabiyotshunoslik oldida milliy adiblarimiz ijodini mana shunday murakkab sintezlashuv hosilasi sifatida alohida-alohida o`rganish vazifasi turibdiki, bu ham mavzuning dolzarbligini ko`rsatadi.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Amerikalik adib Jek London va o`zbek prozaigi Abdulla Qahhor hikoyalari, ularning "Martin Iden" hamda "Sarob" romanlari tadqiqotning obyek-tini tashkil etadi. Kerakli o`rinlarda jahon adabiyotining boshqa vakillari ijodiga ham murojaat qilinadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Amerikalik jahonshumul adib Jek London va iste'dodli o`zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor qiyosiy tadqiq qilish.

Dissertatsiya vazifalari quyidagilar:

- XIX asrning oxiri - XX asrning boshida Amerika adabiyotida tanqidiy realizm oqimi va uning yirik namoyondalari to`g`risida ma'lumot berish,
- Jek London hayoti va ijodining qisqacha obzorini berish.

- XX asr o'zbek nasrining buyuk namoyondasi Abdulla Qahhor va uning "Sarob" romanini tahlil qilish.
- Jek Londonning o'zbek madaniyatiga kirib kelishi masalasini tadqiq etish;
- "Martin Iden" va "Sarob" romanlarini tipologik o'xshashliklar va o'ziga xoslikni umumiy planda aniqlash.

Tadqiqotning metodologik asosi. Mazkur dissertatsion ishda tadqiq etilgan amerikalik adib Jek London ijodi ham, o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor ijodi ham adabiyotshunoslikda keng o'rganilgan. Jek London ijodi bo'yicha Amerikada o'nga yaqin dissertatsiya himoya qilingan. Charmeyn London, Djoan London, Irving Stoun, Frederik Xoffman, Karl Linn, Charlz Uolkatt, Artur Kalder-Marshall, Rut Frenchir, Richard O'Konnor kabi tadqiqotchilar Jek London ijodiga turlicha munosabatda bo'ldilar. Jumladan, Frederik Xoffman, Karl Linn, Charlz Uolkatt kabi tadqiqotchilar Jek London ijodining mohiyatini tog'ri baholay olmadilar. Ular Jek Londonga realist emas, naturalist sifatida qaraydilar. Umuman, XX asrning 40-50-yillaridan boshlab sobiq SSSR va AQSh o'rtasidagi siyosiy vaziyat ("sovuq urush") tufayli Amerika adabiyotshunosligida Jek London ijodini mamlakat adabiyoti tarixi sahifalaridan tushirib qoldirishga urinish kuzatiladi. Jumladan Richard Cheyzning "Amerikada roman va romanchilik an'analari", Marius Byulining "Ekssentrik obzor (klassik amerika romanchiligida shakl masalasi)" fundamental tadqiqotlarida 19 ta roman, 152 ta hikoya, 3 ta piesa yaratgan jahonshumul adibning nomi eslatilmaydi ham.

Artur Kalder-Marshall, Rut Frenchir, Richard O'Konnor, Irving Stoun kabi olimlarning ishlarida esa adib ijodi san'at namunasi sifatida o'zining haqiqiy bahosini oldi. Umuman, AQSh, Angliya, Fransiya kabi mamlakatlarda Jek London ijodi jahon adabiyotining nodir namunasi sifatida qadrlanadi. Jek London ijodi rus adabiyotshunoslari tomonidan ham o'rganilgan. Bu borada

V.Bogoslovskiy², I.Badanova³, V.Bikov⁴ kabi olimlarning ishlarini ko`rsatish mumkin.

Dissertasion ish uchun asos bo`lgan Abdulla Qahhor ijodi ham o`zbek adabiyotshunosligida keng o`rganilgan. Adib ijodiga bag`ishlab bir necha monografiya va risolalar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yaratilgan. Bu borada M.Qo`shjonov, O.Sqarafiddinov, U.Normatov, R.Qo`chqorov kabi olimlarning ishlarini alohida ta'kidlab ko`rsatish joiz. Mazkur olimlarimiz tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda Abdulla Qahhor hayoti va ijodi juda keng o`rganilgan, adib ijodining g`oyaviy-badiiy satrlari, janrlari, obrazlar olami, badiiy mahorat va badiiy nutq masalalari chuqur va asosli tahlil qilingan. Abdulla Qahhor ijodiga oid o`zbek adabiyotshunosligida yaratilgan katta-kichik tadqiqotlar S.Sodiqovning "Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida mufassal sharhlangan.

Tadqiqotchi Sh.Normatova Abdulla Qahhorning hikoyanavislikdagi mahoratini tadqiq qilgan bo`lsa, X.Hamraqulova, N.Mirzaeva kabilarning ishlarida adib ijodiga yangicha metodologiya asosida, o`ziga xos nuqtai nazarlardan qarash ko`zga tashlanadi. N.Mirzaevaning nomzodlik ishida Abdulla Qahhorning hikoyanavislikdagi tajribalari A.Chexov uslubiga qiyosan o`rganilgan.

Mazkur dissertasion ish Abdulla Qahhor ijodini Jek London asarlari bilan qiyosiy aspektda o`rganishga yo`naltirilgan. M.Qo`shchonovning doktorlik, N.Mirzaevaning nomzodlik dissertatsiyalarida, qisman O.Sqarafiddinov monografiyasida, X.Hamroqulovning nomzodlik dissertatsiyasida Abdulla Qahhorijodi qiyosiy planda tekshirilgan. Lekin mazkur dissertatsiya o`zbek

² Богословский В. Джек Лондон. – М., Просвещение, 1964. – 242 с.

³ Баданова И. Джек Лондон и его герой. Творчество Джека Лондона 1900-1910 гг. – Автореф.дисс... канд.филол.наук. – М., 1963. – 23 с.

⁴ Быков В. Романы Джека Лондона. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – М., 1966. -19 с.

yozuvchisi ijodini faqat Jek London ijodi bilan qiyosiy o`rganishni nazarda tutadiki, yuqoridagi tadqiqotlarda masala aynan shunday qo`yilgan emas.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot ishida qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada aks etgan umumlashma va xulosalardan jahon adabiyoti va zamonaviy milliy adabiyot, adabiyot nazariyasi yo`nalishidagi tadqiqotlar yaratishda, shuningdek, maxsus kurslar o`tishda, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari, o`rta maktablar, akadem litseylar uchun darslik va yo`llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari, eng avvalo, o`zbek adabiyotshunosligida rang-barang tadqiq metodlarining rivojlanishiga, milliy yozuvchilarimizning jahon adabiyoti namoyondalari ijodi bilan qiyoslab chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning tadqiq ob'ektini amerikalik adib Jek London va o`zbek prozaigi Abdulla Qahhor hikoyalari, ularning "Martin Iden" hamda "Sarob" romanlari tashkil qiladi. Kerakli o`rinlarda jahon adabiyotining boshqa vakillari ijodiga ham murojaat qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur ishning ilmiy yangiligi, eng avvalo, unda iste'dodli o`zbek adibi Abdulla Qahhor ijodining amerikalik mashhur realist yozuvchi Jek London ijodiga qiyosan o`rganilganligidan kelib chiqadi. Dissertatsiyada ilk marta "Martin Iden" va "Sarob" romanlarida aks etgan ikkala asar mualliflari Jek London va Abdulla Qahhorning inson ruhiyati manzaralarini yaratishda namoyon bo`lgan o`ziga xos o`xshashlik va farqlar qiyosiy planda chuqur tahlil qilindi;

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. XIX ASRNING OXIRI – XX ASRNING BOSHIDA AMERIKA ADABIYOTIDA TANQIDIY REALIZM OQIMI VA UNING YIRIK NAMOYONDALARI

1. Amerika adabiyotida Tanqidiy realizm oqimining o'ziga xos xususiyatlari

XIX asrning 2-yarmida Amerika Qo'shma shtatlari hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushi butun Shimol hukmron sinfi quldorlar janubi ustidan ga'laba qozonib, butun mamlakat bo'ylab o'z hukmronligini o'rnatdi. Shundan so'ng AQSH jadal kapitalistik taraqqiyot yo'liga kirdi. Sanoatning muhim tarmoqlari ildam qadamlar bilan rivojlana boshlaydi. 70-80 yillarda monopoliya birlashmalari yuzaga kelib, ishchilarni qattiq ishlatish natijasida katta foyda oldilar. Kapitalizm yuqori va so'nggi bosqichi – imperializmga o'tgach, uning ziddiyatlari yana ham keskinlashib ketdi. 1886-yilning may oyida ishchilar uyushtirgan katta qozg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi. Amerika hukmron sinfining harbiy siyosati kuchayadi. U Ispaniya bilan urush olib boradi, Puerto-Riko, Filippinni o'ziga bo'ysundirib oladi. Qisqa muddatli o'sish va ko'tarilishdan so'ng, mamlakat xo'jaligida inqirozlar boshlanib, son-sanoqsiz ishchilar ishsiz qoladi. Bular Amerikaning o'ziga xos taraqqiyot yo'li bor, u yerda hamma uchun teng imkoniyatlar mavjud degan qarashlar bir quruq xayoldan iborat ekanini ochib tashlaydi⁵.

Amerika adabiyotida ham o'zgarishlar yuz berdi. Fuqarolik urushidan so'nggina Amerika adabiyotiga o'sha davrdagi Tanqidiy realizm davri o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Mamlakat siyosatidagi keskin o'zgarishlar, insonga boshqacha nuqtai nazar bilan qarash qalam ahliga ham ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bundan oldin ular o'z his-tuyg'ularini ideal qahramonlari orqali

⁵ Богословский В. К истории реализма в США. Творчество Джека Лондона и Эптона Синклера [1900-1917]. Автореф. дисс... доктора филол. наук. – М., 1963. – 39 с.

ko`rsatgan bo`lsalar, endi ular hayotni to`laligicha haqqoniy, real qilib aks ettira boshladilar. O`ta tanqidiy adabiyot mavzulari oldingi avlod yozuvchilari-Irving, Longfellov va Kuper asarlarida aks etganlardan keskin farq qilardi. Mark Tven bu haqda shunday deydi: “O`tgan 8 yil – 1860-1868 yillarda asrlar davomida saqlanib qolgan ijodiy an`analarni yo`qotdi, insonlarning bir-biriga munosabatini tubdan o`zgartirdi, butun mamlakatning qariyb yarim aholisining ijtimoiy ahvolini yaxshiladi, o`lchab bo`lmaydigan darajada milliy xarakterga ta`sir ko`rsatdi.”⁶

Tanqidiy realizm oqimi kayfiyati amerikaliklar hayotining hamma jabhalarini qamrab oldi. Ko`pgina oldin ham kuzatilgan adabiy mavzularga sevgi-muhabbat, san`at, san`atkorning hayotdagi roli -boshqa ko`z bilan qaray boshlandi. Romantik maktab namoyondalari sevgiga kundalik hayotdan chekinish, dunyoga boshqa ko`z bilan qaray boshlash deb tushunishsa, tanqidiy realizm tarafdorlari burjua jamiyatining nikohni ham shartnoma sifatida ko`rishining qanchalik uyatsiz va nobakor ish ekanligini namoyon etishga urinishdi. Realistlar burjua jamiyati san`atga ham tovar sifatida qarashi ko`rsatishga astoydil harakat qilishdi. Realistlar insonni kundalik konfliktlar orida namoyon etishdi, uning ortida esa insonning his-tuyg`ulari va tabiatini o`rganishga urinishdi. Adib tomonidan kitobxonga har bir qahramonning o`tmishi, buguni va kelajagini tasavvur qila olish imkoniyati berilardi, chunki asar voqealari tarixiy ketma-ketlikda bir-biri bilan bog`liq edi. Amerikalik realistlar sentimentalizmga qarshi bordilar va balkim shuning uchun ularning asarlari ko`pincha ozgina qo`pol, sayqallanmagan ko`rinishi mumkin, lekin ular har doim haqqoniy hayotni ko`rsatadi.

Amerika tanqidiy realizmining yorqin namoyondalari sifatida Mark Tven, Frank Norris, Stefan Kreyn, Jek London, Teodor Drayzerni aytish mumkin. Amerika tanqidiy realizmi dunyo adabiyotini ijtimoiy notenglik, adolatsizlik,

⁶ Засурский Я. Американская литература XX века. – М., Издательство Московского университета, 1984. – 502 с.

qoratanlilar va hindular masalalari, yosh avlodning taqdiri, ayollarning ozodlikka chiqishi mavzulari bilan boyitdi.

Amerika hukmron tabaqalari realizmning adabiyotga tarqalishini oldini olishga va kapitalistik jamiyatning asl mohiyatini yashirishga ko'p marotaba urinishdi. Ular realist yozuvchilarga qarshi uyushishdi: ularni matbuotda obdon tanqid qilishdi, nashriyotlarga ularning kitoblarini chop etishga ruxsat berishmadi, mustaqil ishlaydigan adiblarga ijod qilishga to'siqlar yaratishdi. Ko'pgina adiblar hatto AQSH ni tark etishga majbur bo'lishdi. Ammo amerikalik yozuvchilar shunday san'at asarlari yaratishdiki, bunday asarlar zamonaviy imperializmning reaksiya asoslarini ko'rsatib berdi va shu bilan birga bu kelajakda ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashishga zamin yaratdi.

Bir paytning o'zida bu yosh yozuvchilarning ijodi yangi-yangi asarlar bilan boyiy boshladi. 1876-yilda Mark Tven o'zining "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarini yaratdi. Yosh qobiliyatli haykaltarosh haqidagi "Roderik Hadson" asari Henri Jeyms tomonidan yozib tugatildi va u o'zining yangi "Amerikaliklarga" asari ustida ishlay boshaldi. Kitobxon yangi turdagi adabiyotga ehtiyoj seza boshladi. Realistlar insonlar hayotidagi muammolarni aniq va ravshan ko'rsatishga, o'sha davrdagi amerikaliklar hayotining qandayligini insonlarga tushuntirishga astoydil urinishdi. Stefan Kreyn "Meggi: ko'cha qizi" asarida qashshoq amerikalik ishchi oilasining taqdirini yosh qizning obrazi bilan namoyon etdi. Teodor Drayzer "Amerika fojiasi"da qashshoq yigitning kapitalizm ta'siri ostida pulga o'ch bo'lishi, boylikka intilishining mudhish qutulmoqlarini yaqqol tasvirlab berdi.

Demak, Tanqidiy realism Amerika adabiyotida Fuqarolar urushidan so'ng o'z cho'qqisiga yetdi, bu oqim namoyondalarining asosiy e'tibori ijtimoiy notenglik, hindu va qoratanlilar muammolari, o'sib kelayotgan yosh avlod kelajagi va ayollarga saylov huquqi berish mavzulariga qaratildi⁷.

⁷ Неупокоева Н. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М., Наука, 1976.

2. Jek Londonning hayoti va ijodiy faoliyati

XIX asrning 2 –yarmida – XX asrning boshida yashab ijod etgan Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, keng xalq ommasining o`z huquqlari uchun kurashchisi mashhur realist yozuvchi Jon Griffit Jek London 1876-yilning 12- yanvarda Kaliforniya shtatining San Fransisko shaqrida, kambag`al fermer oilasida tavallud topadi. Jek Londonning asarlari butun dunyoga mashhur, uning asarlari hayotiy rang-barangligi, muhabbatni tarannum etishi, insonlarning beshavqat tabiat bilan kurashini aks ettiradi. Jek Londonning ijodi xilma-xil – uning asarlarida burjua tuzumiga qarshi norozilikni ham, sotsialistik g`oyalarni ham, individualizmni ham va hattoki ijodining so`nggi yillarida tinchlik, barqarorlik mavzularini ham ko`rish mumkin.

Tug`ilganidan so`ng, unga Jon Cheyne deb ism qo`yadilar. Jek London San-Fransiskoda kasodga uchragan fermer oilasida dunyoga kelgan. Yoshlik chog`laridan London moddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, u gazeta tarqatish bilan pul topgan, keyinchalik konserva mahsulotlarri zavodiga ishga kirgan. 14 yoshida uyidan chiqib ketib, mustaqil hayot kechira boshlagan. U bolalik chog`larida hayotning hamma og`ir mashaqqatlarini boshidan kechiradi, o`n yoshidan boshlab ko`chalarda gazeta sota boshlaydi. Jek o`smirlik yoshiga yetgach, konserva zavodida 12-14 soatlab ishlaydi va bunday ish shubhasiz uni holdan toydirar edi. U matros bo`lib Uzoq Sharqqa qatnaydi, bir necha muddat elektrostansiyada o`t yoquvchilik qiladi. Keyinchalik u yana ko`p marta kasbini o`zgartiradi va shtatdan shtatga sargardon yuradi⁸.

Ko`p o`tmay ishsiz qolib mamlakat bo`ylab kezib chiqadi. 1893- yilda “Sofi Sazerlend” kemasiga matros bo`lib yollanib qarzini to`lash uchun pul to`plab oladi. 1894-yilda u yana Kaliforniyani tark etib ishsiz kishilar bilan Vashingtonga jo`nab ketadi. U yerda guruh tarqalib ketib, Jek ancha vaqtgacha darbadarlik qilib yuradi va Kanada chegarasida ushlanib qamoqqa olinadi. U

⁸ London, Joan “Jack London and His Times”, New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.

doimiy boshpanasi bo`lmaganligi sababli 1 oy davomida ozodlikdan mahrum qilinadi. Jek London 1895-yilda ijtimoiy ishchi partiyasiga a'zo bo`lib kiradi va uning targ`ibot-tashviqotchilik faoliyati boshlanadi. 1896-yilda yozuvchilikka berilib, u o`z kuchini turli janrlarda sinab ko`radi. Universitetga kirib, bir yil o`qiydi, iqtisodiy ahvoli o`qishni tashlab ketishga (1897-yil) majbur etadi. Kir yuvish korxonasiga ishga kirganda og`ir mehnat uning tinkasini quritadi. Shundan so`ng u oltin koni topilgan Alyaskada ishlab, katta tajriba orttirib qaytadi. Yosh Jek har qadamda hukmron sinf jamiyati tug`dirgan dahshatlar nimadan iborat ekanini ko`radi.

Jek London 1897-yilda Alyaska (Klondayk)da boshlangan “oltin vasvasasi” girdobiga tushib, oltin izlovchilarga qo`sqilib, Kanadaga jo`nab ketadi. Bir necha yil umrini o`sha yerda o`tkazadi. Uzoq shimolga Jek London baxt izlab boradi. Shimol sovuq iqlim sharoiti oltin izlovchilarning va hindularning yashash tarzi, xarakteri Londonga u yerdan qaytgach ko`plab boy syujetli va rang-barang hikoyalar yaratishga undaydi.

1900-yildan boshlab uning hindular va shimol qabilalari haqidagi ko`plab hikoya to`plamlari chop etila boshlandi. Ularda muallif janubiy dengizga sayoqati haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Ancha paytdan so`ng uning hikoyalari juda mashhur bo`ldi va Jek London professional yozuvchiga aylana bordi. Shimoliy dengiz sayohati Jek London asarlar to`plamining bir guruhiga kiradi (“Bo`rivachcha”, “Sovuq bolalari”, “Janubiy dengiz hikoyalari”).

Bu yorqin va o`ziga xos asarlarida Jek London ijtimoiy nohaqlik, notenglik va insonlarning pastkashligiga qarshiligini namoyon etadi, muallif bu kabi xislatlarni shimolning sovuq iqlim sharoitiga va sivilizatsiyadan ortda qolgan odamlarning kuchli fe'l-atvoriga qarama-qarshi qo`yadi. London tez-tez sivilizatsiyadan yiroq hindularni va Tinch okeani xalqlarini beg`ubor, kuchli va mard kishilar sifatida tasvirlaydi. London ularni beqiyos romantiklar qilib ko`rsatadi va ularning tabiatidagi jo`shqinlik, jasurlik va hayot uchun kurashga

hozirlikni ko`klarga ko`tarib maqtaydi (“Shimoliy Odisseya”, “Kishe haqida afsona”, “Oq sukunat” va boshqalar)⁹.

London “Oq sokinlik” – qorni yengadigan, beshavqat ob-havoga qarshi tura oladigan shaxslarni beqiyos ulug`laydi. Lekin u o`z qahramonlari – oltin izlovchilar va hindularni o`taketgan individualistlar – o`zlarini boshqalardan ustun qo`yuvchi kishilar sifatida ifodalaydi. Ularning o`ziga xosligi, oqilligi, kuchli irodasi, jismoniy ustunligi nafaqat odamlarni, balkim hayvonlarni ham yenga oladi va o`ziga bo`ysundira oladi.

1900-yildan so`ng Jek London asosan ishchilar, o`z haq-huquqi uchun kurashuvchilarga ba`gishlangan edi. Mana chunday hikoyalardan biri “Yo`ldan ozgan” hikoyasidir. Hikoyada muallif 7 yoshidan boshlab tinimsiz ishlagan va og`ir mehnat qilish natijasida ish mashinasiga o`xshab qolgan bola Jonning g`amgin hayotini so`zlab beradi.

Bu davrda uning eng mashhur asarlaridan biri “Martin Iden” ning yaratildi.

Londonning birinchi ijodiy ishi va ocherki “Yaponiya qirg`oqlaridagi tayfun” 1893-yil 12-noyabrda mukofotlandi va taqdim etildi. Alyaskadan qaytganidan so`ng, u adabiyot sohasiga jiddiy kirishib, 1899-yilda o`zining shimol hikoyalarini bosib chiqaradi. 1890-yilda o`zining birinchi kitobi “Bo`rivachcha” nashr etiladi¹⁰.

1903-yilda yosh Jek Londonga tashrif buyuradi. 1905-yilda Londonning nomzodi Oklend hokimligiga qo`yiladi va u unda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. 1910-yildan esa u siyosiy hayotdan chetlana boshlaydi.¹¹

O`zining 40 yillik qisqa umrida Jek London Kaliforniya ranchosida qishloq xo`jaligi bilan shug`ullanadi. Keyinchalik Rus-Yapon urushida, Meksika inqilobida, San Fransiskodagi yer qimirlashi vaqtida u reportyorlik qildi, Harvard va Yel universitetlarida ma`ruzalar o`qiydi. Bir qancha og`ir

⁹ Зверев А. Джек Лондон. М., 1975.

¹⁰ London, Jack; Taylor J. Golden “A Literary history of the American West” Fort Worth: Texas Christian University Press, 1988 y.

¹¹ London, Joan “Jack London and His Times”, New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.

kasalliklarni boshidan kechiradi va 2 marta uylanadi. Umrining oxirgi yillarida ichkilik girdobiga tushib qoladi. 1916 -yilning 22- noyabrida Jek London San Fransisko yaqinidagi Glen Ellen shaharchasida vafot etadi.

Jek Londonning ijodiy faoliyati juda og'ir sharoitda boshlandi. 1899-yilda Amerika jurnallarida Shimol hayotidan olib yozilgan "Yo'ldagilar sharafi uchun", "Oqsukunat", "Bo'rivachcha" va boshqa hikoyalari paydo bo'ladi. "Otalar xudosi" (1901-yil), "Sovuq bolalari" (1902-yil) hikoyalar to'plamlari yozuvchiga katta shuhrat keltiradi¹².

1905-1910 yillar Jek London ijodining yuqori cho'qqisi hisoblanadi. U shu davrda inqilobiy ruhdagi maqolalarni ("Inqilob"), "Temir tovon", "Martin Iden" kabi eng yaxshi romanlarni yozadi. Jek London 200 ga yaqin hikoyalar, 400 ga yaqin ommabop asarlar, 20 ta roman, 3 ta pyesa muallifidir. Uning "Shimol Odisseyasi" asari tez shuhrat qozondi. Jahondagi obro'-e'tiboriga qaramasdan Rossiyadagi inqilobdan oldin Jek Londonning faoliyati deyarli ko'rinmas edi. 1917-yildan keyin Londonning ba'zi kitoblari "O'g'rilik", "Oq tish", "Uch yurak" film sifatida ekranda namoyish qilindi¹³.

London qahramonlari – birinchidan, oddiy mehnatkash kishilar, qaysiki qiyinchiliklarga tik ko'z bilan qarashga ularni yengib o'tishga harakat qiluvchilar. Masalan, oddiy dengizchi Martin Iden, havaskor-bokschi Felips Rivera, universitet professori Freddi Dramond-ularning bari mehnatni e'zozlaydigan, atrofdagi voqealarga e'tibor beradigan insonlardir.

Jek London – asarlari dunyo bo'ylab eng ko'p o'qiladigan amerikalik yozuvchi. YUNESKO ning ma'lumot berishicha, 2004-yilda uning asarlari dunyoning 31 davlatida chop etilgan. U Amerika adabiyotining boshlaridan biri bo'lib, u o'ziga xos, progressiv an'analarni boshlab bergan yozuvchi sanaladi.

¹² London, Jack; Taylor J. Golden "A Literary history of the American West" Fort Worth: Texas Christian University Press, 1988 y.

¹³ London, Joan "Jack London and His Times", New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.

Jek London XX asrda nafaqat Amerika Qo`shma Shtatlarida, balki butun dunyoda mashhurlikka erishgan eng birinchi amerikalik yozuvchi edi. Uning eng birinchi asari chop etilganiga 100 yildan oshdi. Jek Londonning ijodiy faoliyati juda qisqa davom etgan, u juda qisqa umr ko`rdi, biroq shu davr mobaynida juda ko`p jahon adabiyoti durdonalarini yaratdi. XX asrda ham Jek London asarlari o`z dolzarbligi, o`ziga benihoya tortishi, jozibasini yo`qotmagan. U qariyb 20 yil davomida ijod bilan shug`ullandi, shu vaqt mobaynida u hozir ham katta qiziqish bilan o`qiladigan san`at asarlarini yaratdi.

Amerika adabiyotida Jek London Uolt Uitmenning gumanistik harakatini davom ettiradi. Garchi II Jahon urushidan keyin modernistik tendensiyalar paydo bo`lgan bo`lsa-da, insonga ishonch an`anasini hozirgacha ham Amerika adabiyoti namoyondalarining asarlarida ko`rishimiz mumkin¹⁴.

¹⁴William,James "Jack London's Works by Date of Composition". The Jack London Online Collection, 2010 y.

3. “Martin Iden” – Jek Londonning shoh asari

“Martin Iden” romani “Temir tovon” dan farqli ravishda o`zgacha tarixiy sharoitda yaratilgan. Dunyo katta o`zgarishlar to`lqini arafasida turgan paytda bu asar dunyoda kelgan. Mana shunday bir sharoitda Jek London “Martin Iden” ustida ishni boshladi. Uilyam Geysmar, mashhur amerikalik tanqidchi, masalan, “Martin Iden”ni “o`zi o`qigan asarlarning eng yaxshisi” deb aytadi.

“Martin Iden” xarakteriga ko`ra antiburjuaz asardir. Asarda muallif burjua jamiyatini o`rganish asosidagi fikrlariga nuqta qo`yadi va burjua jamiyatini o`sha davrdagi barcha kamchiliklarga aybdor qiladi. Ulkan mahorat bilan romanda Amerika burjuaziyasining nuqsonli tomonlari, reaksiyon kuchlari, betartib siyosati hamda talantlarni toptab, poymol qilishi, insondagi eng nozik va sof tuyg`ularni yakson qilishi, hamma narsani, hattoki, his-tuyg`ularni ham pul bilan o`lchashi yaqqol ko`rsatilgan¹⁵.

Jek Londonning yangi romani “Martin Iden” nashrga chiqdi. Garchi, uning bu asari ham boshqalari singari yuksak e`tirofga loyiq bo`lsa-da, ko`pchilik tanqidchilar unga loy chaplash bilan ovora”-deydi mashhur AQSH lik adabiyotshunos Ingmar Stoun¹⁶.

Yana bir mashhur yozuvchi Epton Sinkler roman haqida shunday deydi: “Iden”ni Amerikada yaxshi bilishmaydi, uni hali ko`pchilik o`qib chiqmagan...”

Boylar, burjuaziyaning yorqin misoli asarda – Morzlar oilasi. Mister Morz – shuhrat qozongan korchalon, ishbilarmon, yuridik firmaning rahbari – o`zini juda aqlli va bilimli kishi deb hisoblaydi. Biroq aslida u elementar fan qonuniyatlarini bilmaydi. Mister Morz o`ziga haddan tashqari qattiq ishongan, o`zining hammaga kerakligini ko`z-ko`z qilib yuradigan kishi, Mister Morz kambag`allarga jirkanch mavjudotlar sifatida qaraydi. Uning nazdida ular hech qachon o`zidek ko`p pul topish qobiliyatiga ega emas.

¹⁵ Быков В. Романы Джека Лондона. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – М., 1966. -19 с.

¹⁶ Быков В.М. Джек Лондон. М. 1964.

Martin Iden Morzlar uchun jirkanch bir dengizchi, zaharlangan o`y-xayollarga berilgan bir “sotsialist”. U hech ham bo`lajak kuyovi oldiga qo`yadigan talablarga javob bermaydi, shuning uchun ham Morz Martin Idenni ularning uylariga mehmonga kelishini to`xtatadi va uning Ruf bilan unashtirishini bekor qiladi. Morzning rafiqasi ham xuddi o`zidek – doimo pul ko`ziga ko`rinadigan ayyor ayol. Ruf onasiga Martinga bo`lgan bo`lgan sevgisi haqida aytganda Missis Morz Martin ularga mos emasligini aytadi. Missis Morz Rufga uning tanloviga ta`sir ko`rsatishni aslo xohlamasligini, lekin nima bo`lgan taqdirda ham Ruf ularning qizi ekanligini va ular Rufning Martinga turmushga chiqishiga yo`l qo`ymasligini va shunday qarab turolmasligini aytadi. Missis Morz Martinni qo`polligi va tarbiasizligi Rufning nozikligi va dilbarligi oldida juda xunuk ko`rinishini aytadi. Martin Ruf uchun yaxshi hayotni ta`minlab ham berolmaydi deb hisoblaydi Missis Morz. Uning fikricha ular boylik ortidan quvmaydilar, ammo er degan xotiniga qulaylik va to`kin-sochinlikni ta`minlab berishi kerak ta`kidlaydi Missis Morz. Ruf ularning yakka-yu yagona qizi va u albatta o`ziga to`q kishiga turmushga chiqishi kerak deb hisoblaydi. Martin esa zoti-zurriyodi noma`lum, qallob, qo`yboqar, kir yuvuvchi, matrosga turmushga chiqishi aslo mumkin emas deydi u.

Morzlar oilasi bilan sudya Blount, korchalon Batler, Charlz Xengud va boshqa o`zlariga o`xshagan burjualar yaqin munosabatda. Ular uchun hayotda faqat bir maqsad bor – pul, boylik to`plash edi.

Martin boyigandan so`ng, bular hammasining unga nisbatan munosabati keskin o`zgaradi. Morzlar oilasi, Blount va boshqalar yoppasiga uning atrofida girdikapalak bo`lishadi. Mana shu “tarbiya kodeksi” asosida Ruf ham ulg`aygan. Muallif shunday deydi: “ Tabiatiga ko`ra Ruf ham konservativ tarbiya topgan edi. Tarbiya esa uni yashagan, ulg`aygan muhitiga xos ravishda fikrlashga undar edi.”¹⁷

¹⁷ Лондон Ж. Мартин Иден. – Т., Ф.Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, [Кодир Мирмухаммедов таржимаси] 1968. – 432 б.

Ruf romanda katta o`rin egallaydi va uning obrazi to`laligicha ochib berilgan.

Roman chop etilgandan so`ng ko`pchilik uni tanqid qilishga kirishdi, Jek Londonga esa bu yomon ta`sir o`tkazardi. F. Foner bu haqda shunday deydi:

“Londonni shu hayratga solar ediki, romanni tanqidchilar bilan bir qatorda, sotsialistlar ham unda individualizm g`oytalari jo bo`lganligi sababli qoralashar edi.”

Ruf va uning oilasi uchun Martin asar boshida “bir qiziqarli, yovvoyi odam edi.” Ruf Martinda qandaydir g`ayritabiiylik, yovvoyilik va kuchni ko`rardi. Unga Martinning kuchi, energiyaga to`laligi yoqardi, lekin uning qo`llarining qadoqligi seskantirar, muomalasi qo`polligi qo`rqitar edi. Boshida uni sevib qolishiga hecham ishona olmasdi, biroq keyinchalik o`zi bilmagan holda unga mehr uyg`ondi. Birinchi marta Martinga bo`lgan mehrini dengizga sayohatga birga chiqqanlarida sezdi: Ruf birdaniga uning yelkasiga suyangisi keldi, unda suyanch qidirdi¹⁸.

Universitetda ta`lim olgan va san`at fanlari bakalavri darajasiga ega bo`lsa-da, Ruf aqliy salohiyati jihatidan Martindan ancha quyi turardi.

“Unda hech qanday o`ziga xos qobiliyat yo`q edi, u har qanday ijodiy yondashuvdan xoli edi, -- deydi London, -- Ruf faqat qolganlarning fikrlarini yodlab olib xuddi to`tiqushdek takrorlar edi.”

Ruf Martinning talanti va boshqalarga o`xshamasligini baholashga qodir emas edi. Uning fikrlari Rufga butunlay yot edi, garchi u san`at fanlari bakalavri bo`lsa ham... “Ruth does not understand his feelings, his views, and thought that Martin could not explain them thoroughly...”

Agar Iden Rufga ko`nglini ochsa, yuragining tub-tubidagi tilaklarini, xohishlarini aytsa, Ruf o`zini boshqacha tutardi. U Martindan o`z fikrlarini yashirardi, o`zini go`ldek tutardi va mug`ombirlik qilardi.

¹⁸ London, Jack “Martin Eden”, London, Project-Gutenberg book, 2010 y.

“She was not sincere with him, and she does not know whether she can be in the future...” Rufning maqsadi Martinni o`ziga ideal deb bilgan otasi va Mister Betlerga o`xshash odamga aylantirish edi. Ruf Martinning adabiy talantiga va uning yozuvchi bo`la olishiga mutlaqo ishonmasdi.

“- Do not you believe me – asked Martin her.

Not you, -- said her, -- but you talent of writing and that you can be the real writer.”

Idenni tushunmay, uning siyosiy dunyoqarashlarini anglamay, u ham otasi, Mister Morz, kabi Martinni radikal deb hisoblardi va uning fikrlari unga shubhali tuyulardi.

“- Do you also think that my ideas are too radical – asked Martin.

- To my mind, they are very suspicious, -- said she.”¹⁹

Ruf Martinga salbiy ta`sir o`tkazadi. U Martinga o`zining tor fikrli, burjua g`oyalarini singdirishga urinadi va uning har qanday fikrini qoralaydi.

Rufning o`zining oilasiga xos an`analarga qarab tutishi Martinni gazetalarda “sotsialist” deb qoralashganda yaqqol namoyon bo`ladi. Ana shu nuqtada Ruf Martin bilan munosabatlarini to`xtatadi. O`zini xudbinlarcha tutib, undan voz kechadi. Oila a`zolarining undashlari muhabbatdan ustun keladi. Uni darbadar va nopok hayot kechirganlikda ayblab, uning ota-onasi haq bo`lganligini va ular bir-birlariga aslo to`g`ru kelmasligini aytadi.

Idenni u uchun o`gir bir paytda tashlab ketadi va u mashhur va boy bo`lgandan so`ng uning yoniga qaytadi.

“No one knows that I am here” said Ruth to Martin coming close to him.”

Martin uyiga kuzatib qo`yadi va yo`lda uning akasi Normanni uchratishadi, Norman Martinga bepisandlik bilan qaraydi.

Ruf asarda oilasining ta`siriga berilgan, ularning “chizgan chizig`idan chiqmaydigan”, yuzsiz, boylikka o`ch kishilar timsoli hisoblanadi.

¹⁹ Лондон Ж. Мартин Иден. – Т., Ф.Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, [Кодир Мирмухаммедов таржимаси] 1968. – 432 б.

Boylikka o`ch kishilar romanda nafaqat yuqori tabaqa vakillari – Morzlar, Blount, Betler va boshqalar tomonidan ochib berilgan, balkim ulardan ancha quyi pog`onada turuvchi shaxslar orqali ham ifodalangan. Ular -- Martinning pochchalari Higginbotam va Shmidt. Ularning har ikkalasi ham kapitalistik jamiyatning jirkanch mavjudotlari. Ayniqsa, Bernard Higginbotam juda jirkanch va pastkash odam, u juda ham xasis va baxil.

Jek London asarlarining ba`zilarida o`sha davr individualizm nazariyasiga qarshi fikrlar bayon etiladi. Uning “Martin Iden” romani ma`lum darajada avtobiografik asar. London Shimoliy dengiz sayoqati davrida ushbu asarni yozdi. U birinchi marta 1905-yil 25-noyabrda opasi Elizaga yozgan xatida yangi roman yozayotganiga sha`ma qiladi:

“Har kuni ishlayman. Yangi romanning 95 ming so`zini yozdim. Bu mening eng uzun asarim bo`ladi.”

Uch oydan so`ng 1908-yilning fevralida yozuvchi o`zining do`sti Klaudsl Jonsga: “Yaqinda men o`zimning 145 ming so`zdan iborat romanimni tugatdim. U Amerika hukmron sinfiga har tomonlama zarba beruvchi asar bo`ldi. Men bir necha yil oldin faylasuf Nitsshening insonning buyukligi g`oyasiga tayanib, “Dengiz bo`risi” asarini yozgan edim. Ko`plar o`zidilar, lekin inson yuksakligi falsafasiga qarshi fikrlarimni ilg`ay olmadilar. Endi esa “Martin Iden”da ham xuddi shunday fikrlarni bayon etdim. Bu roman menga do`st orttirmaydi” deb yozadi.

Roman dastlab “Pacific monthly” jurnalida chop etildi. 1909-yilning 1-sentabrida esa alohida asar bo`lib nashrdan chiqdi²⁰.

“Martin Iden”- Jek Londonning yigirma birinchi asari. Bu davrda u ommaga tanilgan yozuvchi, “Bo`ri o`g`li”, “Hayotga muhabbat” kabi hikoyalar to`plami muallifi, “Dengiz bo`risi”, “Temir tovon” kabi romanlar yaratuvchisi sifatida kitobxonlar ommasiga yaxshi tanish edi. Faqatgina “Martin Iden” asari juda tez kitobxonlarning diqqatini oldi²¹.

²⁰ Быков В. Романы Джека Лондона. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1966. -19 с.

²¹ London, Charmian “The Book of Jack London”, Volume II, Kessinger, 2009 y.

Romandagi voqealar o'zaro bog'liq ravishda takomillashib boradi. Martinning Ruga bo'lgan sevgisi, ularning shaxsiy munosabatlari, Martinning bilim olish uchun tinimsiz shug'ullanishi, uning zodagonlar jamiyatida o'z o'rini topishi, bu jamiyat uning yozuvchilik qobiliyatini tan olishi uchun kurashi- asarning asl mohiyatini tashkil etadi.

Yozuvchining bu asari ham ko'p tillarga tarjima qilingan. Jek London bu romanni yozishida obrazli uslubiy vositalardan yuksak mahorat bilan foydalangan. Obrazli uslubiy vositalar asarga alohida "shira" baxsh etadi va uni o'qish jarayonida o'quvchi buni yaqqol sezadi. Men bu romanning rus, ingliz va o'zbek tillaridagi tarjimalarini taqqoslar ekanman, unda ko'pgina obrazli uslubiy vositalarning ishlatilganining guvohi bo'ldim. Obrazli uslubiy vositalar ya'ni obrazli ifodalar, bular quyidagilar: o'xshatish, mubolag'a, kichraytirish, jontantirish vositalari va hokazo. Ularning har biri o'z uslubiy vazifasiga ega.

Martin Iden kunida 19 soatlab ishlab, katta ishtiyoq bilan ta'lim oladi va o'zining betakror qobiliyati sababli taniladi. Iden asarning boshida burjua jamiyatiga nisbatan soxta tasavvurlarga ega edi, biroq Morzlar dunyosiga kirgandan so'ng Martin "universitetda tahsil olish va haqiqiy ta'lim olish bir narsa emasligini", yuzaki go'zallik, bekamu-ko'stlik ostida ta'magirlik, qalloblik va ochko'zlik yotishini tushunib yetdi.

London behudaga "Martin Iden"ni "burjuaziyaga ikkinchi zarba" deb atamaydi (uning romani "Temir tovon"dan so'ng). Haqiqatdan ham romanda muallifning va bosh qahramon Martin Idenning amerikalik yirik mulkdorlarga nafrati poyonsiz (Qahramonlardan ishi gullab-yashnayotgan Morzlar, Batler, sudya Blant, qo'pol savdogarlar, Xiggenbotam va Shmidt kabi kichik chakana savdogarlar). Bu obrazlar orqali inson qadr-qimmatini uning chek daftarchasidagi pul miqdori va uning pul topa olish qobiliyati bilan belgilanadi²².

Iden jondan ortiq sevgan Ruf ham shu burjua jamiyati muhitining qarashlariga amal qiladi. O'zicha Martinni sevgan Ruf uning intilishlarini tushunmaydi, Rufni Martinning ichki ozod ruhi qo'rqitadi, burjua jamiyatiga

²² Быков В. Романы Джека Лондона. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – М., 1966. -19 с.

nafrati esa dahshatga soladi. Ruf Martinning iste'dodiga toki burjua jamiyati uni tan olmasa, yoxud asarlari uchun yetarlicha pul topa olmasa ishonmaydi.

Sevgisiga xiyonat qilib, Ruf Martin bilan u uchun eng qiyin bir sharoitda munosabatlariga nuqta qo'yadi, biroq Martin mashhur yozuvchiga aylangandan so'ng unga qaytishga tayyor edi. Ularning oxirgi uchrashuvini tasvirlovchi sahna burjuaziyaga nafratga to'la, oxir-qutulmoqda Martin Rufga nisbatan nafratdan bo'lak hech narsa his qilmaydi. Martin oxir-qutulmoqda mashhurlikka erishgandan so'ng, uning atrofidagi kishilarning haqiqiy niyatlarini bilib oladi, badavlat kishilarning faqatgina uning puliga, obro'siga o'chligini tushunadi. Hatto sevgilisi ham u bilan faqat uning obro'si uchun birga ekanligini anglaydi. Martin uchun bu qattiq zarba edi.

I bob bo'yicha xulosa

Umuman olganda, Martin Iden obrazi har tomonlama puxta ishlangan va chuqur falsafiy, psixologik va estetik jihatdan kamolotga yetkazilgan qahramon hisoblanadi. Inson zotining oddiy dengizchilikdan shunday ulkan cho'qqilarga ko'tarilishi uchun tinmay mehnat qilishi, hech ham o'z kuch va salohiyatiga shubha qilmasligi, har doim, faqat va faqat o'ziga ishonishi, kuchli irodasi bilan atrofdagilarni hayratga solishi har kimni ham lol qoldirishga qodir.

“Martin Iden” romani dunyo tan olgan adabiyot durdonalaridan biri. O'tgan asrning boshlarida hech bir asar “Martin Iden” kabi tezda mashhurlikka erishib millionlab tirajlarda chop etilgan emas.

II BOB

XX ASR O`ZBEK NASRINING BUYUK NAMOYONDASI

ABDULLA QAHHOR VA UNING "SAROB" ROMANI

1.O`zbek xalqining hayoti, insonning ichki va ruhiy holatini yoritgan adib hayoti va ijodiy faoliyati

O`zbekiston xalq yozuvchisi, o`zbek adabiyoti va san'ati rivojiga beqiyos qissa qo`shgan adib Abdulla Qahhor o`zbek xalqining hayoti, insonning ichki va ruhiy holati to`g`risida o`lmas asarlar yaratdi. U XX asr o`zbek nasrining yetakchi adiblari qatoridan munosib o`rin olgan mashhur namoyandalardan biri. Abdulla Qahhor adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan, keyin hikoyanavis sifatida shuhrat qozongan ulkan adib bo`libgina qolmay, publisist, qissa va romannavis, satirik komediya va lirik dramaturg jurnalist va tarjimon hamda so`z san'atkoridir.

Abdulla Qahhor O`zbek adabiyotining rivojiga katta qissa qo`shgan zabardast yozuvchilardan. Uning hikoya va ocherklari, qissa va romanlari, satirik komediya va lirik dramalari xalqimizning ma'naviy xazinasidan munosib o`rin olgan deya ta'rif beradi O.Sharafiddinov. XX asr o`zbek adabiyotining rivojiga salmoqli qissa qo`shgan ulug` adib, shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon Abdulla Qahhor 1907- yil 17 -Sentyabrda Qo`qonda temirchi oilasida dunyoga keldi. Abdulla Qahhor tug`ilib o`sgan oila mashaqqatli hayot shartlarini boshidan kechirdi. Otasi Abduqahhor Jalilov temirchilik bilan kun ko`rgan. Oila tirikchilik tufayli Qo`qon atrofi qishloqlarini kezib, ko`chib yurgan. Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursun, Nudosh, Buvaydo, Tolik, kabi Qo`qon atrofidagi qishloqlarda kechadi. Abdulla o`n yoshga kirganda Buvaydodagi eski maktabga o`qishga boradi, ya'ni Oqqo`rg`on qishlog`idagi Mamajon qorining usuli Savtiya maktabida tahsil oldi. Oilasi Qo`qonga ko`chib kelgach, "Istiqlol" nomli maktabda o`qishni davom ettiradi, undan internat, "Kommuna", "Namuna" maktablarida, so`ng bilim yurtida tahsil ko`radi. Abdulla Qahhor bilim yurtining "Adib" qo`lyozma jurnalida dastlabki mashqlari bilan qatnashadi. Toshkentdagi

"Qizil O'zbekiston" gazetasi tahririyatining "Ishchi-batrak maktublari" varaqasiga muharrirlik qiladi. 1925-yilda u gazetada ishlash jarayonida O'rta Osiyo davlat universitetining ishchilar fakultetini tamomlaydi²³.

Abdulla Qahhor yana Qo'qonga borib, dastlab o'qituvchilarni qayta tayyorlash kursida muallimlik qiladi. U ko'p vaqt o'tmay "Yangi Farg'ona" viloyat gazetasiga kotib va "Chig'iriq" hajviy bo'limiga mudir etib tayinlanadi.

Abdulla Qahhor adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. Uning "Oy kuyganda" ilk hajviy she'ri 1924- yilda "Mushtum" jurnalida "Norin Shilpildiq" taxallusi ostida bosildi. So'ng uning bir qancha hajviy she'r va hikoyalari "Mushtum", "Yangi yo'l" jurnallari va "Qizil O'zbekiston" gazetasida Mavlon kufur, Gulyor, Nish, Erkaboy, Evoy kabi taxalluslar ostida e'lon qilindi. Abdulla Qahhor 30-yillarda yana Toshkentga qaytadi va O'rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetiga o'qishga kiradi.

Yozuvchi o'sha paytda "Sovet adabiyoti" jurnalida mas'ul kotib vazifasini bajaradi. Keyinchalik u o'z davr nashr (1935-1953 yillar)da muharrir va tarjimon, 1954-1956 yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib ishlagan.

Abdulla Qahhorning ijodi she'riyat bilan boshlangan bo'lsada, uning adabiy merosi negizini nasriy asarlari tashkil etadi. "Boshsiz odam" hikoyasi 1929-yilda chop etilgan vaqtдан boshlab, umrining oxirigacha hikoya, ocherk, publisistika, qissa va roman janrlarida samarali ijod qildi²⁴.

Adibning birinchi "Qishloq hukm ostida" qissasi 1932- yili chop etilgan. Keyinchalik 1933- yilda "Olam yosharadir", "Qotilning tutilishi", 1935-yilda "Qanotsiz chittak", 1936- yilda "Maston" kabi hikoyalari to'plamlari nashrdan chiqdi.

Abdulla Qahhorning 30-yillar ijodida uning birinchi romani - "Sarob" muhim o'rinni egallaydi. Yozuvchining ushbu romani bosh qahramon

²³ Шарафиддинов О. Истеъдод жиолари // Қаҳҳор А. Асарлар. Олти томлик. 1-том. – Т., F.Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967 йил. – 5-37-б.

²⁴ Зиёдуллаева Н. Ўзбек адабиётшунослигида ижодкор биографиясини ўрганиш муаммолари (Абдулла Қаҳҳор ҳаёти ва ижоди асосида). Фил.фанл.номз... дисс.автореферати. – Т., 2000. – 26 б.

Saidiyning faoliyatini ko'rsatishga qaratilgan, yana unda 20-yillarning 2-yarmidagi o'zbek xalqi hayotining maishiy, etnografik, iqtisodiy va ma'naviy manzaralari yaqqol aks etib turadi.

"Sarob" keng mavzuli roman bo'lgani uchun yozuvchi o'zining badiiy niyatini yalang'och holda ko'rsatmay, uni shu davr hayotining boshqa manzaralari ko'rinishida reallashtirishga uringan. Voqealar tasvirida yozuvchi hayot haqiqatini saqlab qolgan. Yozuvchining urush yillarida bir qancha feleton, ocherk va hikoyalari e'lon qilindi. "Asror bobo", "Dardaqdan chiqqan qahramon", "Kampirlar sim qoqdi", "Xotinlar" hikoyalari va "Oltin yulduz" kabi qissalarida o'zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalangan.

Adabiyotshunos olim Abdusamatov aytganlaridek, Abdulla Qahhorning ulkan xizmati shundaki, u chaqaloq holda bo'lgan novellani o'stirdi, voyaga yetkazdi, uning rivojiga bo'y berdi. Uning hikoyalari bilan orqada qolgan bu janrning tangligi ko'tarilib bordi, boshqa janrlarga yetib oldi, adabiyotda mustahkam, tarixda abadiy qoladigan o'rinni egallab oldi. Abdulla Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyasi uning novellachilik faoliyatiga, umuman ijodiga katta ishonch bag'ishladi. 30-yillarga kelib, adibning bu sohadagi talanti qiyg'os ochildi. Eng yaxshi hikoyalari shu davrda yuzaga keldi. Baquvvat, hammaga manzur bo'lgan hikoyalari kitobxonlarga ketma-ket taqdim etila boshladi. "Ko'r ko'zning ochilishi", "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Mayiz yemagan xotin", "Adabiyot muallimi", "San'atkor", "Munofiq" kabi hikoyalari novellaning barkamol namunalari bo'lib maydonga chiqdi.

Avvalo, ularda Abdulla Qahhor hayotdagi turli toifadagi kishilarning zarur, kerakli tomonlarini olib ustalik bilan tipiklashtirib, puxta xarakterlar yaratib berdi. Katta hamjdagi asarlar inson xarakterini yaratish uchun keng yo'l ochadi. Bunday asarlarning mualliflari qahramonlarini turli vaziyatlarga olib kirish, har xil kishilar bilan to'qnashtirib, portretlarini har tomonlama ta'riflab, talay baquvvat xarakterlar chizganlar. Ammo mitti asarlarga xarakter yarata olish, ularni kurashga olib kirish, taqdirlarini ishonarli hal qilib, puxta

xarakterlarini chizish mualliflardan katta san'atni talab qiladi. Abdulla Qahhor esa yuqorida tilga olingan hikoyalarida bu mushkul san'atni to'la egallab olganini namoyish qiladi. Bunga u hayotni to'la bilishi, insonlarning ichki olamiga chuqur kirib borishi orqali erishadi. Bu esa o'z qahramonlarining shodligini, qayg'u-alamlarini, hayajonlarini, g'azab nafratlarini, kuchli kechinmalarini yorqin ifoda etishga imkoniyat tug'dirdi.

Novellalarda kishi ruhining murakkab tomonlari nozik tasvirlarda ko'rinadi. Yozuvchi hikoyalarining muhim xususiyatlari shundaki, ularda insonning ichki holati to'g'ri tasavvur qilinishi bilan birga, ruhiy holati asar mazmuni bilan bog'lanib ketadi. Abdulla Qahhor jajji hikoyalarida satirik va yumorist sifatida o'z talantining yangi qirrasini namoyish qildi. Unda kulgichilikka taomil zo'r edi. Buni juda ko'p asarlari aytib turibdi. U yomonga o'z idealini, davr nafasini qarshi qo'yadi, asarlarining mazmuniga, xarakterlarning mohiyatiga kulgini, masxarani singdirib yuborish bilan uning jamiyatdagi ulkan kuchini, ijobiy xarakterini yaqqol ko'rsatadi.

Abdulla Qahhorni novellachilikda ulkan muvaffaqiyatlarga olib kelgan omillardan yana biri - uning mumtozlardan, ayniqsa, rus adabiyotidan o'qish-o'rganishi bo'ldi. "Ulug'san'atkorning ijodi, - deb ta'kidlagan edi shoir, - badiiy mahoratimni oshirishda katta maktab bo'ldi".

Moskvada o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi vaqtidagi muhokamada rus yozuvchilari shunday degan edi: "O'zbekistonda katta adabiyot bor. U, shu darajada yuksalibdiki, uning ba'zi vakillaridan, masalan, A. Qahhordan biz ham o'rganishimiz kerak".

Abdulla Qahhor novellaning yirik ustasi. Shuni alohida qayd etib o'tishimiz kerakki, Abdulla Qahhordan oldin ham, u ijod etgan zamonda ham, undan keyin ham talay novellistlar bu turda qalam tebratdilar va tebratmoqdalar. Lekin ularning hech qaysi biri uning oldiga tus qolmadi. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida tengi yo'q novellist. Abdulla Qahhorning povestlari kitobxonlar orasida ko'proq mashhur bo'lib ketdi. U xalq ommasi hayoti va kurashining turli bosh ichlarini ifoda etgan povest va qissalarni ketma-ket nashr ettirdi.

"Dardaqdan chiqqan qahramon", "Oltin yulduz" qissalari urush yillarining dahshatli va mardonavor manzaralari bilan tanishtiradi. "Muhabbat" da esa, yoshlarning po'latday mustahkam do'stligi, ikki qalbning otashin hissiyotlari, bu yo'ldagi turli-tuman to'siqlarni matonat bilan yengib, qarshiliklarga uchraganda chok-chokidan to'kilib ketadigan sevgi emas, balki hayot girdoblari to'lqinlarida yanada mustahkamlanadigan muhabbat madh etiladi.

Shuningdek, qissada axloq-odob, insoniy muhabbat, ma'naviy poklik targ'ib qilinadi, molparastlik, xudbinlik qoralanadi. Povestlar ichida ayniqsa, "O'tmishdan ertaklar" hamda "Sinchalak" kitobxonlar o'rtasida shov-shuvga, ularning katta hurmatiga sazovor bo'ldi.

Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar"i memuar xarakterdagi asar bo'lib, adibning o'z hayoti, oilasi misolida, xotiralari asosida yozilgan bu asarda hayot voqealari tarixan aniq va realistik ifodalangan. Adib "O'tmishdan ertaklar"ida bizni o'tgan voqealarga, hayotning achchiq-chuchuk lavhalaridan olib o'tadi. Biz yosh Abdulla bilan birga kulfatlarni, azoblarni boshimizdan kechirganday bo'lamiz, yangi hayot bo'sag'asiga kirib nash'asini sura boshlaganday bo'lamiz. Turmushdagi voqea va hodisalarning ishonarli qilib asoslab aytilishi, ularning qiziqarli, badiiylilikda hikoya qilinishi povestning yutug'ini ta'minlagan asosiy omildir²⁵.

Abdulla Qahhor prozaning deyarli barcha turlarida qalamini charxlab olgandan keyin, adabiyotimizning qiyin janrida ijod etib, to'rtta diqqatga sazovor bo'lgan sahna asarlarini yozdi. San'atkorning dramaturgiya sohasidagi xizmati uning komediyalari bilan xarakterlanadi. Muallif shu davrning muhim mavzularidan biri - qo'riq yerlarni o'zlashtirish mavzusidagi "Shohi so'zana" "Yangi yer", komediyasidir. Atoqli rus dramaturg Nikolay Pogodin "Yangi yer"ni "talantli komediya" deb atashi ham bejiz emas. "Shohi so'zana" komediyasida qo'riq yerlarning – Mirza cho'lning o'zlashtirilishidan ko'ra ba'zi kishilar ongidagi sho'ning bartaraf etilishi mavzui birinchi o'ringa olib

²⁵ Шарафиддинов О. Истеъдод жилolari // Қаххор А. Асарлар. Олти томлик. 1-том. – Т., Ф.Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967 йил. – 5-37-б.

chiqilgan. Urushdan keyingi o'zbek adabiyotidagi asosiy konflikt - yangilik bilan eskilik o'rtasidagi ziddiyat bu komediyada o'zining teran badiiy tasvirini topgan. Ushbu asarda muallif ustalik bilan kulgili holatlar yaratgan va hajviy bo'yoqlardan mohirona foydalangan holda konfliktni o'ziga xos ravishda hal qilgan. Ushbu komediya xorijiy mamlakatlar sahnasida ham o'ynalib, o'zbek teatr sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish qilindi.

Abdulla Qahhor keyinchalik "Og'riq tishlar", "Tobutdan tovush" hamda "Ayajonlarim" komediyalari bilan o'zbek dramturgiyasi rivojiga salmoqli qissa qo'shdi. Bu asarlarda, xususan "Tobutdan tovush"da o'sha davr uchun xos bo'lgan illatlar hajv o'ti ostiga olindi. Ayniqsa so'ngi asarda Abdulla Qahhor o'ziga xos nozik tuyg'u bilan jamiyatdan poraxo'rlikdek dahshatli illatni tagtomiri bilan yo'qotish istagida uning ayrim ko'rinishlarini sahnaga olib chiqdi, u "So'nggi nusxalar" nomi bilan ham sahna yuzini ko'rdi.

Abdulla Qahhor hayotining so'nggi kunlarida sho'ro jamiyatida shaxsga sig'inishning avj olishi orqasida yuz bergan fojialarni tasvirlovchi "Zilzila" qissasi ustida ish olib bordi. Biroq uni tugata olmagan. Ayni paytda Abdulla Qahhor asarlari rus, arman, belorus, gruzin, latish, litva, moldovan, mordoverzya, ozarbayjon, tatar, tojik, tuvin, turkman, uyg'ur, ukrain, chechen, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, eston kabi tillarga tarjima qilingan. Uning ayrim hikoyalari esa arab, bengal, bolgar, vietnam, ingliz, ispan, mongol, nemis, polyak, rumin, fransuz, fors tillarida chop etilgan. Ulug' san'atkor yozuvchimiz ijod bulog'i qaynab turgan bir pallada og'ir darddan 1968-yil 25-mayda 61 yoshida dunyodan o'tdi. Abdulla Qahhor ijodi bo'yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozilgan va yozilmoqda hamda bir qator yirik monografiyalar, tanqidiy va biografik risolalar nashr etilgan. Uning "Sarob" romani qayta-qayta nashr qilingan. Jumladan, 1995-yilda "XX asr o'zbek romani" turkumida chop etildi. Yozuvchi XXI asrda yashovchi avlodlarga XX asr o'zbek jamiyatining qiyofasini namoyon qiladi, chunki uning asarlari chinakam o'zbekona nasr namunasi edi. "Adabiyot ko'ngil ishi, ilhom samarasi" ekanligini anglagan o'zbek kitobxoni Abdulla Qahhor asarlarini mutolaa qilar ekan, yozuvchi

iste'dodiga albatta tan beradi. Zero,ki, sevimli adibimizning o`zi orzu qilgan asarlari "adabiy go`zallik"ning nasrida o`z aksini ko`rsatgan. "Adabiy go`zallik" ila o`grilgan asarlarini hali ko`p o`qiymiz. Abdulla Qahhor adabiyot tarixida o`z sahifasini ochgan, o`z ovozi va uslubiga ega bo`lgan yozuvchi sifatida, san'atkor sifatida qimmatlidir. Uning bir qancha asarlari millionlab kitobxonlarning e'tiborini qozondi. Yozuvchi asarlari butun dunyoga mehnatsevar, donishmand o`zbek xalqi haqida, uning ma'naviy kamoloti haqida hikoya qiladi.

Abdulla Qahhor ijodining g`oyaviyligi va zamonaviyligi uning haqqoniyligidadir.

2. "Sarob" romani va zanjirband etilgan ichki intilishlar muammosi

"Sarob" - o'zbek adabiyotshunosligida eng-ko'p bahs-munozaraga sabab bo'lgan asarlardan biridir. "Sarob"ga oid turli-tuman tallinlar yo'nalishini qishacha shunday umumlashtirish mumkin: a) romanning bosh qahramoni Saidiyni hiyin tarixiy davrda adashgan shaxs sifatida talqinqilish (M.Qo'shjon)²⁶; b) romanni shafqatsiz g'oyaviy kurash oynasi o'laroq tadqiq qilish (O.Sqarafiddinov)²⁷; d) asarda tasvirlangan voqealarni hujjatli voqelik bilan qiyoslash (R.Qo'chqorov); e) romanga jamiyat va shaxs psixologiyasi nuqtai nazaridan qarash (M.Olimov)²⁸.

"Mirzo Ulug'bek" tragediyasi voqealarini harakatlantiruvchi ziddiyat toj-taxt bilan bog'liq bo'lgani singari, "Sarob"ning markazida ham, barcha tadqiqotchilar yakdil e'tirof etganlaridek, ikki qarama-qarshi kuchning hokimiyatga egalik qilish uchun ayovsiz kurashi masalasi turadi. Bu - roman yaratilgan davrning eng dolzarb mavzusi edi. Abdulla Qahhor davr ruhini anglagan ilg'or yozuvchi sifatida, bir jihati, o'zi ham ichida turgan qaynoq ijtimoiy jarayonlarni epik talqinqildi. Bizni qiziqtirgan jihat shuki, yozuvchining maqsadi - jamiyatni yangilashga oid qarashlari bir-biridan farqqilgan ikki xil kuchning o'zaro kurashini ko'rsatishdan iborat bo'lsa ham, u asarni dab durustdan aynan ijtimoiy voqealar - millatchilar deb atalgan kishilardan tuzilgan tashkilotning faoliyati bilan bog'liq voqealardan boshlamaydi. Roman Saidiy va Munisxonning uchrashib qolishi, muhabbatning tug'ilishi tasviridan boshlanib, birinchi bo'lim va ikkinchi bo'limning dastlabki boblarida deyarli ikki yosh o'rtasidagi hayajonli ishqiy uchrashuvlar, iztiroblar beriladi. Adib o'quvchini muhabbat mojarolari bilan qiziqtirib qo'yib, keyin Saidiyni xarob qilgan ijtimoiy kurashlar ichiga boshlab kiradi.

Albatta, asar uchun qanday voqealarni tanlash, syujetni qay tarzda shakllantirish, nimadan boshlash, nimalarni berish, nimalarni tashlab ketish -

²⁶ Қўшжонов М., Норматов У. Маҳорат сирлари. – Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. – 219 б.

²⁷ Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Т., Ёш гаврди, 1988. – 256 б.

²⁸ Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси // Фил.фанлари номзоди... дисс. – Т., 1993

yozuvchining daxlsiz huquqi. San'atkor yozuvchi bunda hayot va san'at qonunlaridan chekinmaydi, albatta. Lekin savol tug'iladi: nega Abdulla Qahhor Saidiy fojeasini uning ishqiy intilishlari bilan bog'lab qo'ydi. Agar o'rtada Munisxon bo'lmasa, Saidiy Salimxon, Murodxo'ja domla, Abbosxonlar guruhiga kirmasdan, Kenja, Ehson, Sharif tanlagan yo'ldan ketmasmidi? bu savolga turlicha javob berish mumkindir, ehtimol. Biz bu savollarga psixoanaliz yordamida javob izlaymiz.

Abdulla Qahhor o'z romanida o'ta muhim ijtimoiy mavzuni qalamga olgan. Biroq ishqiy liniyasiz - mavzu har qancha dolzarb, davr kishilarini har qancha hayajonlantirgan bo'lmasin - bu asar anchayin g'arib, kitobxon uchun qiziqarsiz, o'tsiz bir asarga aylanib qolishi aniq edi. Chunki jahon adabiyotining bir necha yuz yillik taraqqiyoti davomida, turli adiblar tomonidan qanchalik xilma-xil voqealar, rang-barang mavzular, tuyg'ular, kayfiyatlar qalamga olinmasin, ishq masalasini chetlab o'tgan asarni topish mushkil. Boshqacha aytganda, barcha asarlarda hech istisnosiz mavjud bo'lgan yagona motiv - muhabbat motividir.

Mumtoz Sharq she'riyati - butun boshli ishqiy lirikadan iboratligini ham hammamiz bilamiz. Buning sababi ishqiy intilishlarning inson hayoti markazida turishidadir. Ijodkor shaxs o'z asari kitobxonga qiziqarli bo'lishi uchungina emas, balki erkak va ayolning bir-biriga intilishi - insonlikning muhim masalasi ekanligini his etgani uchun ham o'z asarida ishqiy sarguzashtlarga o'rin beradi. "Sarob"day keskin ijtimoiy kurash tasvir etilgan romanning muhabbat motivi bilan boshlanib, bu motivning qahramon yo'li va taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mana shunday ruhiy hodisa bilan shartlangan.

Endi "Agar o'rtada Munisxon bo'lmasa, Saidiy Salimxon, Murodxo'ja domla, Abbosxonlar guruhiga kirmasdan, Kenja, Ehson, Sharif tanlagan yo'ldan ketmasmidi" degan savolga diqqat qaratamiz. Romanda yozuvchi tomonidan aniq qilib ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, Saidiyda ehsonlar tanlagan yo'ldan ketish ehtimoli ko'proq. Chunki, birinchidan, Saidiy ijtimoiy mavqe jihatdan Ehson, Kenja, Shariflar bilan bir pog'onada turadi: ularning hammasi oddiy, mulkdor

bo'lmagan oila farzandlari. Ichki tabiatiga ko'ra Ehson, Shariflardan har qancha farq qilmasin, Saidiy o'tmish jamiyatda kun ko'rmagan, sho'rolar tuzumidan umidvor toifa vakili edi. Shunga ko'ra Saidiy to Munisxon bilan tanishib, Salimxonlar muhitiga kirgunga qadar o'ziga o'xshaganlar bilan birga (bolaligidan Ehson bilan birga o'sgan, roman voqealari boshlanganda ham Ehson bilan hamhujra) bo'lgan. Basharti, Munisxonni uchratmaganda, o'z davrasida holar va shu odamlar kabi asta-sekinlik bilan Sho'ro tarafdoriga aylangan bo'lardi. Chunki u Salimxon, Muxtorxon, Murodxo'ja domla, Yoqub, Ilhomlar kabi avval-boshdanoh millatchilik g'oyalari yo'lidagi sobit kurashchi emas, balki qaysi yo'lning to'g'riligini aniqlayolmay sargardon bo'lib yurgan bir yo'lsiz edi. Uning bu ikki yo'ldan birini tanlashi tashqi ijtimoiy faktor emas, ichki - insonni boshqaradigan muhabbat faktori ta'sirida sodir bo'ladi.

Ikkinchidan, Saidiy olamshumul yozuvchiga aylanish istagi bilan yonib, yozganlari hech bir bosilmay xit bo'lib yurgan kunlarda Kenja tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, uni yettinchi osmonda parvoz qildirgan voqea sodir bo'ladi - hikoyasi bosilib chiqadi, "men"lik ehtiyoji sanoatlantiriladi. Lekin oradan hech qancha o'tmay Saidiy Kenja tomonga emas, o'z she'r va hikoyalarining bosilishiga qarshilik qilgani oshkora ma'lum bo'lgan Yoqub va Ilhomlar pozitsiyasiga osonlik bilan o'tib ketadi. Agar Saidiyda shon-shuhratga, olamaro dovrug'dor yozuvchi bo'lishga intilish birinchi planda turadi, deb hisoblasak, u Yoqub va Ilhomdan nafratlanishi, ularni qattiq yomon ko'rib qolishi, Kenjaning etagini mahkam tutishi kerak edi. Voqealar esa aksincha rivojlanadi. Abdulla Qahhorvoqealarning mana shunday rivojini Saidiyning Munisxonga bo'lgan muhabbati bilan shartlaydi va bunda yozuvchi psixoanalitik jihatdan to'la haqdir.

Asar Saidiy va Munisxonning romantik uchrashuvlari bilan boshlanadi. Saidiy Munisxon orqali Salimxon, Abbosxonlar muhitiga kirib boradi. Shu bilan yozuvchi voqealar o'zanini ijtimoiy aspektga burib yuborganday tasavvur tug'iladi. Lekin turli shiddatli voqealar davomida ham Saidiyni boshqarib turgan kuch Munisxonga bo'lgan muhabbat ekanligini, uning uchun hamma

narsadan, har qanday kishidan, har qanday boylik, shon-shuhrat, g'oyadan muhimroq narsa mana shu muhabbat ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu mulohazaning isbotini romandagi shunday voqealarda ko'rish mumkin: Saidiy pochchasi bilan arazlashib yuradi, ammo katta soliq to'lashi zarur bo'lganda pochchasi Muhammadrajab qaynisi bilan yarashib oladi. Ukasining uyiga kelganidan xursand bo'lgan opa unga uzoq gapiradi, "opasi bilan qilgan ozgina suhbat Saidiyni begonalashib ketgani bu oilaga yaqin keltirdi. Bu so'zlarning ichida nimadir uni ranjitdi va nimadir unga yoqdi" , deydi yozuvchi bu suhbat haqida, ammo nima yoqqan-yoqmaganligini aytmaydi. Lekin o'quvchi bu gaplarning ichidan Saidiyga "Salimxonning singlisini mahtadi. Rahimjon shuni oladigan bo'lsa, bor-bisotimni sotib beraman, deb o'tiribdi. Shuni olib beraman, yo'lini topdim, dedi" degan so'zlar ekanini yozuvchi izohsiz ham biladi.

Xuddi shu voqealar asnosida Saidiy soliqni to'lashga pochchasiga yordam berishini aytar ekan, pochcha "he... o'zingiz... Yo'q-e... Sizga pul ko'p kerak bo'ladi. Ungacha topsak ham... Munisxon endi bandi judo bo'lib qoldi" deydi. Endi Saidiyning holiga e'tibor qiling: "Saidiy quloqlarigacha qizardi va gapni boshqayoqqa burdi, ammo Muhammadrajabning yana shu to'g'rida gapirishini xohlar edi"²⁹.

Sal keyinroqdagi voqea: Saidiy Abbosxonning maslahati bilan bir hikoya yozadi, Saidiy hikoya qahramoni bo'lgan xunuk xotinni tasvirlashda Soraxonni asos qilib oladi, hikoyani jurnalga yuborgach, yuragiga g'ulg'ula tushadi: tasvir shu darajada aniqki, Soraxonning otasi Murodxo'ja domla xafa bo'lmasmikan lekin shu zahotiyoyq Munisxonning xayoliy siymosi Murodxo'ja domlani ham, unga sodiqlik orqasidan keladigan mol-dunyo, shon-shuhratni ham o'chirib tashlaydi: "Munisxonning bir hiyqirib kulishi oldida mingta domla o'ta bersin! Shu bilan Soraxonga qanday qarashimni Munisxonga ko'rsatgan bo'laman-ku!" (109) Vaholanki, Saidiy shu kunlarda Murodxo'ja domlaning uyida yashar,

²⁹ Қаххор А. Сароб. – Т., “Шарқ” нашриёт-матбаа коцернининг бош тахририяти, 1995. – 240 б.

uning qo'llab-quvvatlashidan katta umid qilib yurar edi. Munisxonning to'yi bo'ladigan kuni esa u ertalabdan kechgacha ichadi.

Saidiy Soraxonga uylanib, shaxsiy hayoti zahar-zahhumga aylansa ham, o'zi katta umidlar bilan qaragan millatchilikg'oyasining barbod bo'luvi, o'zining bu borada bir chaqalik ish qilolmagani aniq bo'lib holsa ham, katta yozuvchilik haqidagi xayollari allaqachon barbod bo'lgan bo'lsa ham, o'limni bot-bot sog'insa ham yashashda davom etaveradi; uni hayotdan butkul bezib, ruhiyatini ostin-ustun qilgan, o'linga hukm etgan hodisa, shubhasiz, Munisxonning bu yorug' dunyoni tark etishi edi: "Munisxonni yiqitgan bu og'ir halokatli chohga do'mbaloq oshib ketayotgan Saidiyning "tutib holib jon saqlayman" degan toshini ko'chirdi" (214).

Vaholanki, Saidiy eriga ko'ngilsizligi, Saidiyni unutilmagani sababidan buzuq yo'lga kirib ketgan [sublimasiyaga intilish] Munisxonni rad qilib ketgandan keyin ham undan ko'nglini uzolmaydi, o'z hayotidagi alg'ov-dalg'ovliklarga qalbining tublariga cho'kib yotgan sevgisidan najot axtaradi, uning ishi "...hayotining uqubatli minutlaridan oz bo'lsa ham dam beradigan Munisxonni yana bir martaba "Rahimjon" dedirishgina edi. Uning Munisxonga bo'lgan hozirgi muhabbati mana shu uqubattan dam olish, ertaning vahimasini unutish, o'zini kechagi kunga tortishgina, ammo bu muhabbatni hamon o'sha, hamon studentlik vaqtidagi oshiq-ma'shuqlik deb bilgani uchun nega hozirgi Munisxonning shuncha razolati bu muhabbatni so'ndirmaganiga hayratda edi" (213). Uni butkul umidsizlantirgan, hayotdan bezdirgan hodisa o'zi bosh ho'shgan g'oyaning yengiluvidan ham ko'ra, Munisxonning nazaridan judo bo'lish edi:

"Domladan ajrab chiqib ketganidan so'ng Saidiyning yo'l adashib umidsizlikka tushgan kishiday shalvirashiga sabablardan biri - Munisxonning so'zlamasligi edi. Saidiy ko'chada bir-ikki uning yo'lini to'sdi hamki, burilib ketdi, qaramadi. To Munisxon noma'lum sabab bilan o'zini otguncha kunlar shunday o'tdi" (213).

Saidiyning barcha intilishlarini Munisxonga bo'lgan muhabbat harakatlantirishini Abdulla Qahhorning o'zi ham bir o'rinda ochiq aytib o'tadi. Saidiyning roman muallifi tilidan ifoda etilgan bu iqrori Munisxonning to'yidan keyin beriladi: "Saidiy nima uchun universitetga kirgani qanchalar mashaqqat tortdi. Universitet uni Munisxonning ko'zi tushadigan yigitlar qatoriga qo'yishi kerak edi.

Endi u nega martaba, boylik orttirish uchun bunchalik jonini jabborga berayotir. Martaba, boylik - uni boshqa hamma erkaklardan ajratishi, Munisxonning diqqatini jalb qiladigan o'ringa qo'yishi kerak edi" (119).

Aytish mumkinki, Saidiyning o'z hayot yo'lini tanlashi, fojiaga yo'liqishi to'la ishqiy motivga asoslanadi. Hatto bir o'rinda yozuvchi muhabbatni to'g'ridan-to'g'ri "yengib bo'lmas xohish" (152) deb ataydi³⁰.

Saidiyning ko'ngli intilgan ayolga bo'lgan mayllari-ku ong ostiga quvg'inga uchradi, psixanalitik jihatdan voqealar endi qanday rivojlanishi kerak. Albatta, Idga qaytarilgan istaklar boshqacha shaklda reallashishga intiladi. Bu jihatdan ham Abdulla Qahhor ruhshunos sifatida muvaffaqiyatga erishgan. Munisxonga intilishi omadsizlarcha yakun topgan Saidiy zo'r berib yozuvchilik ishiga sho'ng'iydi, Salimxonlar guruhiga qo'sqilib yuksak deb hisoblagani ijtimoiy g'oyalar uchun kurash yo'liga kiradi. Ammo Saidiy misolida sublimasiya to'liq amalga oshmaydi, u mavjud tuzumga qarshi turgan kishi sifatida o'z ichki kuchlarini reallashtira olmaydi. Tashqi ta'sirlar bilan (Salimxonning singlisining tuyg'ulari bilan hisoblashmay uni Muxtorxonga uzatishi, Munisxonning mag'rurligi, Murodxo'ja domlaning Saidiyni pultopar mashinaga aylantirishi kabilar) ishqiy intilishlari zanjirband etilgan Saidiy o'ziga tabiat tomonidan ato etilgan iste'dod - ichki quvvatni boshqa shaklda bo'lsa-da, voqelikka aylantirmoqchi edi - ammo endi bu urinishni qudratli tankday o'z yo'lidan chiqqan barcha narsalarni bosib-yanchib ketayotgan mudhish sho'ro tuzumi barbod qiladi. Bu romanning bir o'rnida Saidiyning o'z

³⁰ Қаҳҳор А. Сароб. – Т., “Шарқ” нашриёт-матбаа коцернининг бош тахририяти, 1995. – 240 б.

tilidan ham aytiladi: "Adiblik mening kasbim bo'lishiga ishonaman, domla,- dedi Saidiy domlaning so'zidan mamnun bo'lib. - Arximed: "Menga tayanch nuqtasini beringiz, richagim bilan yerni ko'taraman", degan. Men ham yerni ko'taraman, domla, menga ham tayanch nuqtasi kerak, bu - sharoit" (88) . Reallasha olmagan ichki imkoniyat o'z sohibini yemira boshlaydi, Saidiy hayotdan bezadi, ichkilikka beriladi, o'limni sog'inadi. Abdulla Qahhor insondagi ichki quvvatning tashqi muhit qarshiligiga uchrab, o'z makoni - odamning o'ziga qaytish hamda sublimasiyaga intilish mexanizmini juda yaxshi bilgan va romanda ko'rsatib bera olgan. Salimxonlar muhitidagi hammaning ichkilikka berilishi, nevrotik hollarni namoyon qilishi (84) mana shunday ruhiy holat natijasi. Yoki yozuvchi Mahmudjon afandi haqida "Adabiyot muallimi, ishidan, turmushidan rozi emas. Norozilikdan ko'ra kelajakda rozi bo'lish umidining yo'qligi kishini ko'proq toliqtiradi. Bunday odamlar yo ichadi, yo namozxon bo'lib qoladi. Mahmudjon afandi esa har ikkisini ham qilar edi" (73) deb yozadi.

Xuddi shunday hodisa Munisxon misolida ham sodir bo'ladi. Muxtorxondan jirkangan Munisxon o'zini to'rt tarafga uradi: odamlarga, xususan, Saidiyga o'zini baxtiyor ko'rsatadi, alamlarini jilovlay olmay buzuqlik yo'lga kiradi, Saidiyni qaytadan o'ziga og'dirmoq, xullas, ichki potensialdan qutulmoq istaydi. Oqibat shu bo'ldiki, toza muhabbat uchun yaratilgan Munisxonday go'zal va mag'rur qiz ham, yuksak tuyg'ular sohibi bo'lgan, tabiat favqulotda iste'dod bilan siylagan Saidiy ham fojiaga uchraydilar. Yozuvchi asarni yaratishdan qanday maqsadni ko'zlaganidan qat'iy nazar, voqealar rivoji shunday xulosa chiqarishga asos beradi: odamlarning hayotini alg'ov-dalg'ovqilgan zamon bo'roni, nobop ijtimoiy muhit chinakam insoniy baxtga loyiq bo'lgan, ulug'vor ishlarni amalga oshirishi mumkin bo'lgan kuchlarni mahv etadi, har ikkala qahramon zanjirband etilgan ichki imkoniyatlarning qurboniga aylanadilar.

Roman voqealaridan kelib chiqibo'zimizga shunday savol berishimiz mumkin: nega Munisxon ham, Saidiy ham kuchli muhabbat egalari bo'lib turib,

hech bir qarshiliksiz birovi xunukdan-xunuk Muxtorxonni, ikkinchisi yarim jinni Soraxonni o`z hayotining yo`ldoshi bo`luviga rozi bo`ldi, ma'lum muddat ular bilan yashadi. Nima uchun o`zini o`ldirish hodisasi har ikkisining, hech bo`lmasa, bittasining to`yidan oldin sodir etilmadi. Nima uchun ular sevmagan kishilaridan fazilat, sevganlaridan nuqson axtarishga o`zlarini majbur qildilar. Roman bu borada ham kuchli mantiq asosiga qurilgan. Abdulla Qahhor inson hayotining ma'nosini tashkil qilgan ishqiy motivga o`z ta'sir kuchi bilan undan qolishmaydigan mol-davlat faktorini qarshi qo`yadi. Muxtorxonning boyligi Munisxonni yon berishga majbur qilganidek ( "...ikki kundan so`ng onasidan Muxtorxonning boyligini eshitib, xayol surdi" (113)) , Saidiyning ham muddaosi qo`ldan ketgan baxtning alamiga Murodxo`ja domlaning mulkiga ega chiqish edi. Ammo Muxtorxonning badavlatligi sarob bo`lib chiqqanidek, Murodxo`ja domla ham qizini Saidiydan ajratib olish harakatiga tushib qoladi. Undan ham tashqari, boylik chinakam muhabbat uchun yaratilgan bular ikkalovining qalbidagi afsonaviy ishh bilan hech bir raqobat qilolmas edi, oqibat-natijada qiz ham, yigit ham fojiaga yo`liqadilar.

Abdulla Qahhorning o`tkir ruhshunos adib ekanligi yozuvchi ijodining tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etilgan. "Sarob"da aks etgan psixoanalitik hodisalar ham bu e'tirofni tasdiqlaydi. Asardagi dastlabki qarashda ahamiyatsizdek tuyuladigan bir necha o`rinlar diqqatimizni jalb qildi. Roman boshidayoq psixoanalitik jihatdan muhim bo`lgan moment beriladi. Universitet eshigida Saidiyga ro`para kelib qolgan Munisxon undan Sayfiyni so`raydi, ammo bu so`z Saidiyning qulog`iga "Saidiy" bo`lib kiradi. Z.Freyd "Xatkor xatti-harakatlar" deb nomlangan 2-ma'ruzasida bunday hodisani "yanglish eshitish" ("oslishki") deb ataydi. Abdulla Qahhor yanglish eshitishni asoslash uchun Saidiyga yaqinroq "Sayfiy"ni keltiradi, aslida mazkur ruhiy vaziyatda fonetik jihatdan uyhash bo`lmagan xohlagan so`z ham qahramonimizning qulog`iga o`z nomi bo`lib kirar edi; bu - Munisxon diqqatini o`ziga qaratish istagining namoyon bo`lishidir. Voqealar rivojining davomida rostdan ham shunday holatga duch kelamiz. Turli jurnallardan necha martalab rad javobi

olgan Saidiyning hikoyasi, nig'oyat kunlardan-bir kun dunyo yuzini ko'radi - jurnalda bosilib chiqadi³¹.

Bu voqea Saidiyni shu darajada hayajonga soladiki, u butun dunyoni unutar darajaga yetadi. Yozuvchi o'z qahramonining ruhiy holatini shunday tasvirlaydi:

"Ko'chaga chiqsa xuddi birov muborakbod qilayotganday, Saidiy shu kuni ovqatga xam bormadi. holbuki, ertasiga fakultetda ham hech kim, hatto Munisxon ham bu haqda indamadi. Kim qarasa, Saidiyning ko'ziga darhol jurnal kelar, haerda ikki kishi gaplashib turgan bo'lsa, xuddi "qalandar" to'g'risida gapirishayotganday bo'lar, "C" harfi bo'lmagan so'zlar ham qulog'iga "Saidiy "bo'lib eshitar edi." (48) .

"Ko'p hollarda, - deb yozadi Freyd, - adib yanglish aytilgan so'z ("ogovorka") yoki boshqa bir xatokor harakatdan badiiy vosita sifatida foydalanadi. Shu faktning o'ziyoq bizga yozuvchining xatokor harakatni, masalan, yanglish aytilgan so'zni, qandaydir ongli harakat deb hisoblaganini ko'rsatadi, chunki yozuvchi bundan ma'lum bir maqsadni ko'zlaydi... U yanglish aytilgan so'z bilan bizga nimanidir anglatmoqchi bo'ladi, biz esa buning nimani anglatishini puxta o'ylab ko'rishimiz kerak... hayotda yanglish aytilgan so'z mazmunsiz psixik tasodifdan iborat bo'lishi, kamdan-kam hollarda ma'noga ega bo'lishi ham mumkin, ammo yozuvchi unga ma'lum bir maqsad bilan ma'no yuklashga to'la haqlidir" . Sal keyinroqda esa xatokor harakatlarning badiiy adabiyotdagi o'rniga diqqatqaratgan psixoanalitik O.Rankning "shoirilar xatokor harakatlarning ma'nosi va mexanizmini yaxshi bilishadi" degan so'zlarini keltiradi .

Voqealar rivojlanib borar ekan, Munisxonning o'zini Saidiydan juda baland olishini ko'ramiz, ammo har bir so'z, xatti-harakat qizning ko'nglini sotib qo'yar edi. Romanda juda qiziqarli bir detal bor. Bu –g'o'ra detali. Bahor kunlarining birida ular dars tayyorlagani shahar tashqarisiga chiqishadi. Ular

³¹ Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – Москва, Наука, 1991.

o`rtasida Saidiyning muddaosini oydinlashtirgan shunday savol-javob bo`lib o`tadi:

- Tabiat seni shuncha maroq va ishtiyoq bilan yaratsa-yu, ajalga mot qildirsa, telbalik bo`ladi, Munisxon. Sen olam boricha yashaysan...

- Yo`q, har bir boshlanishning oxiri bo`ladi. Tug`ilmasam, o`lmas edim...

- hayot abadiy, Munisxon. Shunga iqror bo`lsang, bas, abadiy yashaysan.

Inson va butun jonivorlar shunga iqror.

- Sen-chi

- Unday savol berib bo`lmaydi. Yakka iqror bo`lishning ma'nosi yo`q.

- Albatta!

- Ikkovimiz iqror bo`laylik bo`lmasa... (29.)

Shundan so`ng Munisxon gapni boshqayoqqa burib, ko`ngli g`o`ra tusayotganini aytadi. Yozuvchi ham, Saidiy ham bunga biror ma'no yuklamaydi. Ammo, bilamizki, ko`ngilning g`o`ra tusashi - ko`pincha boshqorong`ilik belgisi. Ixtiyorsiz aytilgan mana shu gapda Munisxonning Saidiyga jufti halol bo`lish, undan favrzand ko`rishdan iborat o`zi ham iqror bo`lmagan bir istagi namoyon bo`ladi.

Shunday o`rinlardan yana biri Saidiyning o`ngdagi tushibilan bog`liq. Munisxonning to`yidan keyin tushkunlikka tushgan Saidiy o`zini Murodxo`ja domlaga kuyov bo`lish orqali uning mol-mulkiga ega chiqish bilan ovuntirmoqchi bo`ladi. Bu mol-mulk uni shon-shuhratning baland cho`qqisiga olib chiqishi kerak edi. Mana shu xayollar bilan u fantaziyaga beriladi, Abdulla Qahhorning juda topib aytgani kabi "uyg`oq yotib tush ko`radi" (127) .

Saidiyning Abdulla Qahhor tomonidan ustalik bilan yetqizilgan uyg`oq tushi ham psixoanaliz aniqlagan ushbu ruhiy holatga mos keladi: "Saidiy ba'zan kechalari ko`rpada uyg`oq yotib tush ko`radi. U olamshumul yozuvchi: amerikalik mashhur muharrir singari har kuni bir ustunlik narsa yozib, yiliga o`n ikki ming oltin maosh oladi; turli mamlakatlardan frank, dollar, rupiyalar kelib turadi; shundan so`ng bu serhavho, seraziyat shahardan ketib, Shimoliy Amerika adibi Toro singari tabiat quchog`iga kiradi; vodiyning eng bahavo, eng go`zal

yeriga solgan qasrida o'tirib, xotini Ariadnaning royalda qilgan mashqiga quloq berar ekan, butun vodiy va undagi o'tlab yurgan qo'y-qo'zilar, yilqilar, tog' yonbag'irlarida o'sgan pista, archa, ko'm-ko'k o'lanlar va ularning orasidan ilonizi bo'lib oqqan quyoshning nurida kumush tasmaday yarqiragan ariq va ariqchalar ko'rinib turadi. Uning qasri orqasida yer yuzidagi hamma mevalardan topiladigan katta bog' bo'ladi. Saidiy oltinning kuchi bilan bu bog'da nilufar gullari, xurmo va apelsin daraxtlari o'stiradi..." (127) . Karl Gustav Yungning analitik psixologiyasidagi arxetip tushunchasidan kelib chiqsak, Saidiyning fantaziyasi juda qadimdan oq shakllangan jannat manzaralarini esga soladi. Mana shu manzarada kollektiv ong osti tushunchasi o'z ifodasini topgan. Chunki arxetiplar - ong ostida yotgan mayllarning ongga qalqib chiqish shakli bo'lib, Yungning ta'biri bilan aytganda "ibtidoiy obrazlardir".

Karl Yungning fikriga ko'ra ong ostida faqat odamning shaxsiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan kechinmalar emas, balki umuman insoniyat bolaligiga daxldor tasavvur va kechinmalar ham yotadi va ular turli paytlarda (tushlarda, xatkor harakatlarda, nevrotik holatlarda) ongga suzib chiqadi. Gullarga ko'milgan vodiy, zilol suvli ariqchalar, yer yuzidagi hamma mevalar o'sgan bog', hur-pari qiyofali ayol - bularning hammasi faqatgina Saidiy fantaziyasining mahsuli bo'lmay, mifologik tasavvurlar(kolektiv ong osti) ning alohida shaxs ongida jonlanishidir. Abdulla Qahhorning o'zi ham bu fantaziyani "o'sha hurraklar qurillab, asalarilar gul so'rib yurgan jannat" deya ta'riflaydi. Bu fantaziyada royal chalayotgan Ariadna obrazi ham diqqatni tortadi. Nega Saidiy o'zi xotinini royal chalib o'tirgan holatda xayol qiladi. Shubhasiz, bu Saidiy ong ostida yashab yurgan Munisxonning siymosidir. Chunki romanning oldingi boblarida biz Munisxonning o'z uyida royalda Saidiyga qandaydir eski musiqani chalib berganini ko'rgan edik.

Saidiy Munisxondan har qancha nuqson izlamasin, Soraxon timsolida keladigan mol-amlokdan istiroqat, shuhrat topishga intilmasin, baribir, Munisxonning sevimli siymosi hanuz qalbining tub-tublarida yashashda davom

etar va royal chalayotgan Ariadna qiyofasida Saidiyning xayollariga ixtiyorsiz suzib chiqar edi.

Abdulla Qahhor romanida Freydning "Kundalik hayot psixologiyasi" tadqiqotida ko`rsatilgan ruhiy holatlar tasvirini ham ko`ramiz.

Freyd kundalik hayotda hech qanday maqsadni ko`zlamasdan, tasodifan qilingandek tuyuladigan xatti-harakatlarda ham ong ostida yotgan qandaydir maqsad amalga oshishini ko`radi. Bunday harakatlarni Freyd qo`shtirnoq ichidagi xatkor harakatlar ( deystviya, sovershaemie "po oshibke" ) deb ataydiki, bunday nomlanish bu harakatlarning aslida xato xatti-harakat bo`lmay, sabab-oqibat munosabatlariga ko`ra aslida to`g`ri, bizning yashirin, o`zimiz ham anglamagan maqsadlarimiz bilan bog`langanini ifodalaydi. Shulardan biri nimanidir buzish yoki sindirish. Freyd "Vayronkorlik tashnaligi" ( jajda razrusheniya ) deb nomlangan bu harakatning turli maqsadlarda ro`y berishini ko`rsatgan³².

"Sarob"da shunday epizod bor: Soraxon onasi "bulbuligo`yo"ning fitnasi bilan Saidiyni qo`shni ayol bilan don olishishda ayblaydi. Shu asno uyga "bulbuligo`yo"ning o`zi kirib keladi (ataylab albatta) .

"Soraxonning rashkidan boshlangan gap Saidiyning ro`zg`orig`amini yemasligidan o`tib, Muhammadrajabning foydani yeb ketganigacha" (176) yetadi. Bunday janjallarda doim o`zini past olib, zahrini ichiga yutib kelgan Saidiy o`zini tutolmay qoladi. Bor tovushi bilan "Nima qilay? Bo`lganim shu!" deb baqiriqini bir chaqaga olmasdan, hamon sayrayotgan "bulbuligo`yo"ni hayratda qoldirib, stol ustidagi bir taxta oynani mushti bilan urib mayda-mayda qiladi va tutqanoq tutib yiqiladi. Vaholanki, bundan sal oldinroq yozuvchi ikki o`rinda shunday deb ta'kidlaydi: "Domlaga merosxo`r bo`luvida ishongan kunlaridan boshlab biror daraxtning po`stlog`iga yetgan zarardan tortib, yomg`irda devorning nam tortishigacha uning diqqatini jalb qiladigan bo`lgan..." (172) . Yuzaki qaraganda, bir taxta oynani mayda-mayda qilish shunchaki jahli

³² Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – Москва, Наука, 1991.

yoki tutqanoq oldi harakatigina o`zini yo`qotib qo`yish natijasi bo`lib tuyulishi mumkin. Lekin Freyd har qanday harakat, hatto nevroz yoki jinni odamning so`zi yoki harakati ham ma`lum bir maqsadga, ong osti ko`rsatmasiga asoslanadi, deb hisoblaydi. Freyd bir kun qadimgi misr haykalchalaridan birini sindirib qo`yadi va buni shunday izohlaydi: "...shu zahotiyoq tushundimki, men buni (haykalchani sindirishni) boshqa, kattaroq kulfatdan qochish uchun amalga oshirdim"³³.

Shuningdek, daraxtning po`stlog`igacha ehtiyot qilgan Saidiy ham bir taxta oynani qurbon qilib, nafaqat johil Soraxon, "bulbuligo`yo"lar muhiti, balki ma`lum darajada o`zi ham tayyorlagan, to hozirgacha ham tanasida, qalbida kechirib turgan razolat, kulfatdan qochishni ixtiyorsiz ko`zlagan edi. Freyd bu haqda yozadi: "Nimanidir tushirib yuborish, to`ntarish, yoki sindirish hodisalari, aftidan, juda ko`p hollarda ong osti fikrlarining voqelanishidir; buni boshqa safar analiz yordamida ko`rsatish mumkin, lekin ko`pincha buni shunga o`xshagan harakatlarning xalqona irim yoki hazilomuz sharhlari orqali tusmol qilish mumkin. Tuzni bexosdan to`kib yuborish, vino qadahini to`nkarish yoki tushirib yuborilgan pichoqning tikkasiga sanchilishi qanday irim qilinishi ma`lum".

Romanning so`nggi sahifalarida psixoanalitik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo`lgan yana bir holat beriladi. Munisxon endi bu olamda yo`q, olamshumul yozuvchilik haqidagi xayollar ham yoz osmonidagi yengil bulutlarday tarqalib ketgan, tashkilotning ishi qariyb barbod bo`lib, a'zolarining boshi ustida sezilarli bir kulfat aylana boshlagan kunlar... Saidiy o`z hayotiga nuqtaqo`yish qaroriga kelgan lahza.

"Bas, endi, hayot bozoridan xarid qilib bo`lding, endi bemahalga qolmasdan qayt!" ( 226 ) deydi u o`z-o`ziga. Ana shu tushkunlik lahzasida zarhal ramkali kattakon toshoyna unga "juda ko`p odamlar orzu qilgan, ko`z tikkan bir narsa" bo`lib ko`rinadi. Toshoyna bu yorug` dunyoni ilojisiz tark

³³Қаххор А. Сароб. – Т., “Шарқ” нашриёт-матбаа коцернининг бош тахририяти, 1995. – 240 б.

etishga chogʻlangan Saidiyda badxohlik, gʻazab, nafrat uygʻotadi. Chunki uning yoʻli oʻsha davrning koʻpchilik odamlari tanlagan yoʻlga teskari; "juda koʻp odamlar orzu qilgan, koʻz tikkan bir narsa" uni hayotdan bezishga olib kelgan edi.

Toshoyna - Saidiy harchand intilib yetolmagan farovon va shon-shuhratlarga koʻmilgan shohona hayotning timsoli boʻlib koʻrinadi uning koʻziga. Shuning uchun ham "Saidiy sekin oʻrnidan turdi, ashaddiy dushmanga orqadan pichoq urmoqchi boʻlganday bir harakat bilan hoʻl uzatib, stolchadan gul qoʻyiladigan xrustal vazani oldi-yu, qulochkash qilib, oynaning qoq oʻrtasiga urdi. Oyna chilparchin boʻlib toʻkildi, uning bir necha siniq parchasi ramkada osilib qoldi" (226)³⁴.

Saidiy, ehtimol, xuddi yuqorida koʻrganimizdek, oynani boshqa kulfatning oldini olish uchun qurbonlikka keltirgandir, ammo qurbonlik va oldda turgan falokat oʻz himmatiga koʻra teng emas edi - koʻngli tasalli topmagan Saidiy oʻzining mudhish niyatini amalga oshirish uchun tashqariga chiqadi.

Bu epizodda psixoanaliz nuqtai nazaridan muhim boʻlgan yana bir detal bor. Bu - gul solinadigan xrustal vaza. Biz sal oldinroq koʻrdikki, Saidiy stol ustidagi oynani hoʻli bilan sindirib tashlaydi. Ikkinchi marta takrorlangan bu harakatda esa oyna gulvaza bilan sindiriladi. Nega bizningcha, buning sababi oynalardan birining stol ustida, ikkinchisining tikka holda turganida emas; bu sababni ham Saidiyning ong ostida toshday choʻkib yotgan iztiroblardan izlash oʻrinli. Stol ustidagi oyna sindirilgan kuni Saidiy Soraxon bilan qoʻshni ayol ustida dilsiyohlik qilib turganda, shu kunlarda kam pul topayotgan Saidiyning taʼzirini shaxsan berish uchun "bulbuligoʻyo", aslida ataylab, tashqaridan qaraganda esa hech narsa boʻlmaganday gul qoʻyilgan vaza koʻtarib kiradi. "Saidiy oʻtirgan yerida kesak boʻlib qoldi", - deb yozadi Abdulla Qahhor uning holatini tasvirlab. Chunki Saidiy bu xotinning gʻidi-bidilaridan butunlay

³⁴ Қаххор А. Сароб. – Т., “Шарқ” нашриёт-матбаа коцернининг бош тахририяти, 1995. – 240 б.

to'ygan," aksari Soraxon bilan orada gap qochganda onasi aralashsa katta dilsiyohlik bo'lardi".

Ikki epizodda ham oynaning sindirilishi, ikkinchi martada buning gulvaza vositasida amalga oshirilishi psixoanalitik jihatdan puxta asosga ega. O'sha dilsiyohlik, "bulbuligo'yo"ning jirkanch qiliqlari Saidiyning ko'nglida zilday cho'kib yotar, u, o'zi bilmagan holda, o'zini kuchli iztirob va tutqanoqqa yo'liqtirgan buyumning ham sinib yo'qolishini istar edi. Buni Freyd "menga yoqmaydigan obyektga nisbatan maskirovka qilingan ekzekusiya (jismoniy jazo)" deb ataydi.

II bob bo'yicha xulosa

Endi asar va uning muallifi haqida bir og'iz mulohaza. Ma'lumki, roman 1930-1934 yillarda yozilgan. Bu yillar bizning mamlakatimizda turli dunyoqarashlar, g'oyalar, intilishlar o'rtasidagi kurash avjiga chiqqan; yangi hayotni qanday shakllantirish to'g'risidagi jadidizm g'oyalari hali maydondan butunlay chiqmagan bir davr edi.

Jumladan, yozuvchilarham turli xil dunyoqarash vakillari edilar. Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, So'fizoda, Avloniy kabi yozuvchilar to bu yillarga qadar qaysidir momentlarda sho'ro tuzumida o'z progressiv orzularining ro'yobini ko'rib uni maqulladilar; qaysidir momentlarda sho'roviylikning asl mohiyatini anglab, uni to'la qabul qila olmadilar. Adabiyot maydoniga asosan Oktyabr to'ntarishidan keyin kirib kelgan G'.G'ulom A.Qahhor, Oybek, Mirtemirlar avlodi esa, tashqaridan qaraganda, sho'ro tuzumini hech bir og'ishlarsiz qabul qildilar. Ammo bu, bizningcha, tashqaridan qaragandagina shunday.

O'sha yillarda butun jamiyatni, uning oddiy a'zosidan tortib yuksak fikrli ziyolilarigacha qamrab olgan ikkilanish, shubha, ishonchsizlik keyingi ijodkorlar ko'nglidan kechmagan deb o'ylash unchalik to'g'ri bo'lmaydi.

Hatto hayotning eng oddiy masalalarida ham oldingda ikki yo'l turgan bo'lsa, ulardan hay birini tanlashga qiynalasan. Butun jamiyatni qamrab olgan kurash Abdulla Qahhorning ichki dunyosida ham kechgan bo'lishi tabiiy. Fikrli bir inson, yosh yigit sifatida (romanni yoza boshlaganda 23 yoshda bo'lgan) uning ichki olami bunday kurashdan mutlaqo uzoq bo'lishi mumkin emas edi. Shunga ko'ra, garchand Abdulla Qahhor "Sarob" romanining yaratilishi va g'oyaviy yo'nalishini "30-yillarning boshida hayot meni bir guruh millatchilarga ro'para qildi, ular mening muvozanatimni buzishdi" deya aniq ko'rsatgan bo'lsa ham, romanning tug'ilishi boshqa ruhiy jarayonlar bilan ham bog'liq.

Bizningcha, yozuvchi "Sarob"ni yozish bilan o'zi tanlagan yo'lning to'g'ri ekanligiga; teskarisida xatar, dahshat, fojia va falokat borligiga dastavval o'zini ishontirishi kerak edi. "Sarob" ana shu istakning voqelanishidir. Saidiyning aynan roman muallifi bilan tengdosh ekanligi ham tasodif emas, deb

o`ylaymiz. Tom ma'nodagi psixologik asar bo`lgan "Sarob"ning psixoanalitik talqinlari shulardangina iborat emas. Bu asar hali necha-necha qiziqarli tadqiqotlarning ob'ekti bo`lishiga shubha yo`q.

III BOB. "MARTIN IDEN" VA "SAROB" ROMANLARI

QIYOSIY TIPOLOGIK TAHLILI

1. Jek London ijodining o`zbek madaniyatiga kirib kelishi

Amerikalik mashhur yozuvchi Jek London va o`zbek adabiyotini o`zining benazir roman, qissa va hikoyalari bilan boyitgan adib Abdulla Qahhor vaqt nuqtai nazaridan deyarli ketma-ket, ammo boshqa-boshqa ijtimoiy-siyosiy jamiyatlarda yashab, ijod qilganlar. Jek London siyosiy kurashlar avj olgan kapitalizm sharoitida, Abdulla Qahhor esa shaxs erki ham, ijodkor erki ham cheklangan sho`ro davrida faoliyat ko`rsatdi.

Jek London yashagan davrda dunyoning boshqa mamlakatlarida bo`lgani singari Amerikada ham kapitalizm o`zining yuqori cho`qqisiga ko`tarilgan, chuqurlashgan ijtimoiy tengsizlik tufayli siyosiy kurashlar avj olgan, kommunistik g`oyalar yoyilgan edi. 1893-yilda dastlabki hikoyasi - "Yaponiya soqillaridagi to`fonni mahalliy "Koll" gazetasida e`lon qilgan adib ham siyosiy faoliyatdan chetda qolmadi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab u sosial-ishchilar partiyasining a'zosi sifatida mitinglarda qatnashadi, ishchilar harakati to`g`risida maqolalar yozadi, chiqishlar qiladi. Keyinchalik uning siyosiy chiqish va maqolalari "Sinflar kurashi" ( "The War of the Classes", 1905) hamda "Revolyusiya" ( "Revolution and Other Essays", 1910) to`plamlariga jamlandi. Jek London ayovsiz ekspluatasiya zulmi ostida qolganlar sinfining vakili edi, shuning uchun ham u jamiyatni tubdan o`zgartirish tarafdorlari safida bo`ldi; binobarin, 1905 yildagi rus revolyusiyasini ham quvonch bilan qarshi oldi. 1900 yillardan "Bo`ri bolasi" ( "The Son of the Wolf") kitobi bilan yozuvchi sifatida shuhrat qozongan Jek London bevosita rus revolyusiyasi ta'sirida "Revolyusiya" essesi hamda "Temir tovon" ( "The Iron Heel", 1908) romanlarini yozdi. Jek London mazkur romanida to unga hadar deyarli ho`l urilmagan o`tkir ijtimoiy muammolarni ko`tarib chiqdi³⁵.

³⁵ Богословский В. К истории реализма в США. Творчество Джека Лондона и Эптона Синклера [1900-1917]. Автореф. дисс... доктора филол. наук. – М., 1963. – 39 с.

Asarda ijtimoiy tengsizlik, ezilgan sinfning o'z haq-huquqi uchun kurashi singari davrning dolzarb masalalari chuqur badiiy obrazlarda ifoda etildi.

Jek London butun dunyoda ekspluatasiyaga, sinfiy tengsizlikka, mustamlakachilikka qarshi siyosiy chiqishlar avj olgan, jahonning turli mamlakatlarida revolyusiya alangalari yorqinlanayotgan, haqsizlikdan ezilgan mazlumlar sinfi o'z haq-huquqi uchun keskin kurashlarga otlangan bir tarixiy davrda yashadi va ijod qildi. Adib ijodining mazmunini mana shunday ijtimoiy-siyosiy omil tayin etdi.

U o'zining 1904- yilda yozilgan "Dengiz bo'risi" ("The Sea Wolf") nomli romanida zo'ravonlikni qattiq qoralaydi. Xususan, "Temir tovon" romanida adib mehnatkashlar sinfi manfaatlari uchun kurashgan inqilobchi revolyutsioner Ernest Evergard obrazini katta mahorat bilan yaratgan. Roman voqealari zahirida million-million ommaning kelajagi uchun kurashga chaqirish g'oyasi yashiringan. Umuman, Jek London rus yozuvchisi Maksim Gorkiy ijodiga juda ixlosmand bo'lgan. Chunki Jek London yashagan davr burjua jamiyatida qarama-qarshi sinflar o'rtasida ziddiyat juda kuchaygan, butun dunyoni larzaga solgan marksizm ta'limoti million-million kambag'al mehnatkashlarga tenglik va yaxshi hayot va'da qilayotgan bir tarixiy davr edi.

Maksim Gorkiy ham o'z asarlarida "xo'rlanganlar va haqoratlanganlar"(F.Dostoevskiy)ning manfaatlarini himoya qilib, haqsizlikka asoslangan jamiyat va qarashlarni fosh qilar, kurashga chaqirar edi. Jek Londonning M.Gorkiy ijodiga ayricha qarashi uning ham ezilgan sinf vakili, ham ijodkor ekanligidan kelib chiqadi. Jek London Maksim Gorkiy taqdiri va asarlarida o'z qarashlari va taqdiriga hamohanglik ko'rgan edi.

Jek London ijodining shakllanishida o'sha davrda keng yoyilgan ijtimoiy-falsafiy nazariyalar ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Adib, xususan, bir necha muddat Fridrix Nisshe va Gerbert Spenser g'oyalari ta'sirida bo'ldi.

Ingliz faylasufi Gerbert Spenserning ijtimoiy qarashlari o'sha davrdagi tabiiy fanlarning yutuqlari, shuningdek, Fridrix Nisshe ta'sirida shakllangan. G.Spenser ijtimoiy taraqqiyot o'z-o'zicha, evolyusion yo'l bilan amalga oshadi,

bunda xuddi tabiatdagi singari kuchlilar yashab qoladi, ijtimoiy hayotning o'z-o'zicha taraqqiy qilishigina shaxs erkini ta'minlaydi, unga qo'pol ravishda aralashish mumkin emas, bu taraqqiyotga xalaqit beradi, xolos, deb hisoblaydi. U siyosiy kurashlarni rad qiladi, uningcha, "raqobatli kurash faqatgina ibtidoiy harbiy jamiyatlardagina ustivorlik qiladi" .

J.London qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan falsafiy ta'limotlardan biri - nemis faylasufi F.Nisshe ta'limoti edi. Nissheni insondagi harakatlantiruvchi energiya masalasi qiziqtiradi. F.Nisshe hayotni faqat intuisiya yo'li bilan anglash mumkin, insonni hokimiyatga intilishdan iborat bir kuch boshqaradi, koinotdagi barcha jarayonlar qaytarilib turadi, degan fikrlarni o'rta tashlaydi. Nisshening "barcha hayotiy jarayonlarni, jumladan inson bilishini ham faqat hokimiyatga intilishning turli shakllarda namoyon bo'lishi, deb tasvirlashga urinishi J.Londonning nazarida o'zi ko'rib turgan real hayot haqiqatlariga mos edi. Ammo keyinchalik J.London Spenser va Nisshe ta'limotidan qaytadi.

J.Londonning yozuvchi sifatida shakllanishida M.Tven, G.Garland, F.Norris singari amerikalik yozuvchilar ijodining ta'siri katta bo'ldi. Amerika adabiyotida realizm taraqqiyotiga katta qissa qo'shgan mazkur yozuvchilar ijodi J.London uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tadi. Bundan tashqari adib rus yozuvchilari I.Turgenev, L.Tolstoy, M.Gorkiy ijodini ham o'ta qadrlagan. J.Londonning o'zi ham keyinchalik xuddi shu adiblar singari realistik adabiyot taraqqiyotiga katta qissa qo'shdi.

Jek London, asosan, prozaik, adabiy tanqidchi va publisist sifatida faoliyat ko'rsatdi.

U "Koll" gazetasi e'lon qilgan tanlovda g'olib chiqqach, bir qancha hikoya, she'r va poemalar yozib, vaqtli nashrlar tahririyatiga yo'llaydi. Lekin barcha nashrlardan rad javoblari olaveradi. Ruhan tushkunlikka tushib, ma'lum muddatga ijodiy faoliyatni yig'ishtirib qo'yadi. Oltin izlovchilar safida bo'lib, hayotning adoqsiz mashaqqatlarini boshidan kechirib, yana adabiyotga qaytgan Jek Londonga tahririyatlar bilan qattiq kurash olib borishga to'g'ri keladi: jurnallar yo uning asarini chop etmas, yo chop etgandan so'ng gonorar to'lamas

edi. "Mening sillam qurib borardi, - deb yozadi u keyinchalik, - ezilgan, ochlikka mahkum holda men ko`mir qazuvchilikka yoki o`zimni o`ldirishga tayyor edim". Mana shu hayotiy voqealarning barchasi keyinchalik "Martin Iden" romanida o`zining badiiy ifodasini topdi.

Lekin yosh adib baribir adabiy jarayonda o`z o`mini topish fikridan qaytmadi. San-Fransiskodagi jurnallardan biri 1889-yilda uning qator hikoyalarini bosib chiqardi. 1900- yilda e`lon qilingan "Bo`ri bolasi" ("The Son of the Wolf") to`plami esa adabiy jamoatchilik va kitobxonlarga Jek Londonni yozuvchi sifatida tanitdi.

Birin-ketin uning "Otalar xudosi" ("The god of His Fathers and Other Stories", 1901), "Ayozi bolalari" ("Children of the Frost", 1902), "Ajdodlar chaqirishi" ("The Call of the Wild", 1903) to`plamlari bosilib chiqdi. Bu kitoblar Jek Londonga katta shuhrat keltirdi. Jek London butun ijodi davomida 19 roman va povest, 152ta hikoya, 3 ta pesa yaratdi. Uning "Dengiz bo`risi" ("The Sea Wolf"), "Qor mamlakati qizi" ("A Daughter of the Snows"), "Dengiz bo`risi" ("The Sea Wolf"), "Temir tovon" ("The Iron Heel"), "Martin Iden" ("Martin Eden"), "Vaqt kutmaydi" ("The Burning Daylight"), "Oy vodiysi" ("The Valley of the Moon"), "Elsinordagi isyon" ("The Mutiny of the Elsinore") kabi romanlari, qator povest va hikoyalari, pesalari butun jahon kitobxonlarining sevimli mulkiga aylangan³⁶.

Ta`kidlash kerakki, Jek London ijodi bilan yaxshigina tanish bo`lgan Abdulla Qahhor, bizningcha, o`z romani uchun nafaqat "Martin Iden"ning syujet liniyasini, balki Jek London hayotining o`zini ham asos qilib olgan; juda bo`lmaganda, fojiali hismat egasi bo`lgan amerikalik iste`dodli adib hayoti voqealari g`ayri ixtiyoriy ravishda "Sarob"da aks etgan. Chunonchi, ijtimoiy ideallari barbod bo`lgan, mashhur yozuvchilik haqidagi orzulari puchga chiqqan Saidiy dastlab Soraxonga uylanib, oilaviy hayotda osoyish topmoqchi bo`ladi, keyin esa o`zini turmush xo`jaligiga uradi, imorat soladi. Bu Jek London hayoti

³⁶ Быков В. Романы Джека Лондона. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – М., 1966. -19 с.

voqealarini esga soladi. Jek Londonning o'ziga to'q xonadon qizi Meybl Epplegartga bo'lgan muhabbati barbod bo'lgach, sevmasdan turib Bess Maddern ismli maktab muallimasiga uylanadi. Ammo bu nikoh ham omadsiz kelib, Jek ikkinchi marta Charmian Kittredjga uylanishga majbur bo'ladi. Ammo adib har ikkala safar ham oilaviy halovatga erisha olmaydi. Birinchi oilasidan bo'lgan qizlari bilan til topishishga harakat qiladi, ammo uni na xotini, na qizlari, na opalari - hech kim tushunmas, u o'z olami bilan yakka-yolg'iz edi.

Asta-sekinlik bilan adibning ko'ngli socialist-ishchilar harakatidan sovib, partiyadan uzoqlasha boshlaydi. o'zini tabiat qo'yniga, ishga, xo'jalikka uradi, bor kuchini Glen-Ellendagi fermer xo'jaligiga sarf qila boshlaydi, ot va qoramol boqadi, "Bo'ri uyi" deb nomlangan dabdabali uy quradi. Yuz ming dollarga tushgan "Bo'ri uyi" qurilib bitmasdan yonib kunpayakun bo'ladi. Fermer xo'jalik ham katta daromad keltirmay qo'yadi. Shunchalik qudratli siyosiy kurashlar bilan ham tevarak-atrofidagi hayotning zarracha o'zgarmaganini, katta-ko'pchilik xalq hamon qashshoqlik muhtojlik changalida halok bo'layotgani, aqlidan ozayotgani, ma'nan inqirozga uchrayotganini ko'rgan Jek London kuchli ichki iztiroblar changalida qoladi.

Ichkilikka beriladi, sog'lig'i puturdan ketadi. Keyin esa socialistlar partiyasidan uzil-kesil chiqish haqida ariza beradi. Oxir-oqibatda esa nosog'lom tanasidagi qattiq og'riqlarga chiday olmagan, tushkunlikni yenga olmagan adib qabul qilinajak morfiyni me'yoridan oshirib, qirchillama 40 yoshida o'z hayotiga yakun yasaydi. Bularning bari Saidiy hayotining manzaralarini ko'z oldimizga keltiradi³⁷.

Jek London ijodiga qiziqish o'zbekistonda XX asrning 20-30 yillaridan boshlangan. Abdulla Qahhorning Jek London ijodiga oid dastlabki qaydlari ham o'tgan asrning 40-yillariga to'g'ri keladi.

Amerikalik adib ijodi o'zbek madaniyatiga dastlab rus tilidagi tarjimalari bilan kirib keldi. 1928-29- yillardayoq Jek Londonning rus tilida 24 tomlik

³⁷ Богословский В. Джек Лондон. – М., Просвещение, 1964. – 242 с.

asarlari nashr qilingan. Abdulla Qahhor ham adibning rus tilidagi asarlari bilan tanishgan. Hatto u adib asarlari haqida gapirar ekan, roman nomini o'zbekchaga tarjima qilmay "Den plameneet" deb ketaveradi. Jek London hikoyalari o'zbek tiliga o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab tarjima qilina boshladi. 1968-yilda esa "Martin Iden" romani Qodir Mirmuhammedov tomonidan tarjima qilindi. 2010 -yilda ijodkorning bir qator hikoyalari F.Abdullaev tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, alohida kitob holida chop etildi. To'plamga "Shimol Odisseyasi", "Ayol kishining mardligi", "Hayotga muhabbat", "Isyonchi", "Buyuk sehrigar", "Kish o'g'li Kish", "Meksikalik", "Moxov Kulau" hikoyalari kiritilgan. Hozirgi paytda o'zbek tarjimashunosligi oldiga Jek London asarlarini ingliz tilidan - bevosita asliyatdan tarjima qilish muammosi turibdi.

2. "Martin Iden" va "Sarob" romanlaridagi go'yaviy-badiiy yaqinliklar

Har qanday ikki asarni qiyoslash ular o'rtasidagi mushtaraklik va o'ziga xoslikni aniqlashdan boshlanadi. Muayyan asarning taqlid namunasi yoki adabiy ta'sir natijasida maydonga kelgan original ijod mahsuli ekanligi mana shu yo'l bilan aniqlanadi.

Amerikalik yozuvchi Jek Londonning "Martin Iden" va o'zbek adibi Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlari o'rtasida muayyan o'xshashliklar borligi adabiyotshunoslikda aytilgan. Adibning o'zi ham adabiy-tanqidiy maqolalari, chiqishlarida bir necha o'rinlarda Jek London ijodiga ham, "Martin Iden" romaniga ham diqqat qaratib o'tadi. Bu fakt va ma'lumotlar Abdulla Qahhorning Jek London ijodini ham, uning "Martin Iden" romanini ham yaxshi bilganligini ko'rsatadiki, bundan o'zbek adibi amerikalik yozuvchi yaratgan romandan adabiy ta'sirlangan, deyishga imkon beradi.

Chindan ham, "Martin Iden" va "Sarob" romanlari o'rtasida bir qator mushtarakliklar ko'zga tashlanadi. Bu, eng avvalo, qahramonlarni tanlash va voqealar rivojida ko'rinadi. Har ikkala romanning ham bosh qahramonlari - ijodkor shaxslar. Ularning har ikkalasi ham kambag'al oiladan chiqqan. Abdulla Qahhor asarning boshida Saidiyning otasi oddiy temirchi bo'lganligiga ishora beradi: Ehson "Saidiy bilan do'st edi, bu do'stlik otalarini ham munosabatdor qilgan edi. Ehsonning otasi har kuni kechqurun ko'chalaridagi chiroqlarga yog' quyib yoki ularni yoqib yurganida, albatta, Saidiyning otasini kirib o'tar, ba'zan kechalari kelib damini bosar, muvofiq ish topilsa bosqonini ham urar edi". Ajratib ko'rsatilgan jumlar otaning temirchi bo'lganligini ko'rsatadi. Asar voqealari boshlanganda Martin ham, Saidiy ham ota-onalaridan ajralib, yetim bo'lib qolgan edilar; har ikkala qahramonning ham bu olamdagi eng yaqin kishilari - opalari edi. Saidiyning bir, Martinning ikki opasi bor edi. Tabiiy qonqardoshlik bog'lab turgan bu opalar o'z jigariga ona singari harqancha mehribon bo'lmasin, ular Martin va Saidiyning yuksak orzu-niyatlarini anglay olmaydilar. Ruf otasi, onasi, akalaridan iborat to'laqonli badavlat oilaning erka farzandi

bo'lgani singari, Munisxon ham onasi va akasining mehr-muhabbati panohida to'q, betashvish hayot kechiradi.

Har ikkala romanda ham pochcha obrazi bor. Martinning pochchasi Bernard Xigginbotam ham, Saidiyning pochchasi Muhammadrajab ham savdogarlik bilan shug'ullanadi. Ularning ikkalasi ham o'z rafiqalarini ayovsiz xo'rlaydi, bu mushfiq ayollarni inson o'rnida ko'rmaydi, uka tufayli oilada g'idi-bidi bo'lib turadi. Gertrudaning taqdiri Martinning yurak-bag'rini ezgani singari, Saidiy ham opasiga qarab qattiq iztirob chekadi. Martin ham, Saidiy ham ma'lum muddatga qo'li kaltalik sabab pochchalarinikida turishga majbur bo'ladilar. Har ikkisining ham orasi pochchasi bilan boshqalar tushunmaydigan orzu-niyatlar tufayli - Martinda adib bo'lish orzusi, Saidiyda esa o'qishga kirish niyati tufayli buziladi.

Har ikkala asar qahramonlarining hayotidagi juda muhim o'zgarish- ular ilohiy muhabbat bilan sevgan qizni uchratishlari voqeasi bilan boshlanadi. Ruf ham, Munisxon ham yuqori tabaqa vakili bo'lib, Martin uchun ham, Saidiy uchun ham qo'l yetmas yuksaklikda yashaydilar.

Voqealar har ikki romanda bir-biriga mushtarak ravishda rivojlanib boradi. Yuqori tabaqaga mansub bo'lgan boy-badavlat qizga erishish maqsadi Martin va Saidiyni ham iztirobga solib, ham ulardagi ichki kuchni uyg'otib yuboradi.

Har ikkala yigit o'z sevgilisiga munosib bo'lish, unga erishish uchun jamiyki imkoniyatlarini ishga soladilar. Martin va Ruf o'rtasidagi muhabbatni Rufning yaqinlari qabul qila olmaganlari singari, Munisxonning akasi Muxtorxon ham ikki yosh o'rtasidagi munosabatga yuzaki qaraydi, bilib turib o'zini bilmaslikka soladi. "Kalamush bilan ko'mir konida bo'ladigan halokat, mushuk bilan beda, Britaniyaning mustamlaka siyosati bilan hindistonning oq sigiri, yer magniti bilan shimoldagi "kamalak", hatto tish og'rig'i bilan ko'z og'rig'i orasida ham bir munosabat – bog'lanish bor ekaniga Salimxon ishonadi, ammo olijanob singlis Munisxon bilan jo'n bir student Saidiy orasida qanday

munosabat bo'luvi mumkin ekanligi boshini qotirar edi" (35), - deb yozadi bu holatni tasvirlagan A.Qahhor.

Voqealarning keyingi rivoji roman mualliflarining badiiy maqsadiga ko'ra turlicha rivojlanadi. Martin kapitalizm sharoitida mumkin bo'lgani singari kutilmagan muvaffaqiyatga, katta boylikka erishadi. Saidiy esa mustabid tuzumning minglab qurbonlaridan biriga aylanadi. Yechim esa har ikki asarda o'xshash: tabiat tomonidan katta potensial kuch ato etilgan, yuksak orzu-maqsadlar bilan yashagan ikki navqiron yigit xudkushlikka yuz tutadilar.

"Martin Iden" va "Sarob"da bundan tashqari motivlararo mushtaraklik ham ko'zga tashlanadi. Binobarin, voqealar Martinning ham, Saidiyning ham o'zlari uchun yangi bo'lgan muhitga - birining o'ziga yot bo'lgan tabaqa vakillari xonadoniga, ikkinchisining universitetga qadam qo'yishi bilan boshlanadi. Rufni ham, Munisxonni ham birinchi ko'rishdayoq yigitda barq urib turgan sog'lom navqironlik o'ziga jalb qiladi; umuman, har ikkala qiz ham ijtimoiy tafovut haqida o'ylab ko'rishga ham, bu yigitlarning yuksak ma'naviy dunyosi bilan tanishishga ham ulgurmay tabiiy maylning asiri bo'lib qoladilar.

Jek London dastlabki uchrashuvning qizdagi taassurotini shunday tasvirlaydi: "Also, with quick, critical eye, she noted a scar on his cheek, another that peeped out from under the hair of the forehead, and a third that ran down and disappeared under the starched color. She repressed a smile at sight of the red line that marked the chafe of the color against the bronzed neck" (12-13)³⁸. ("Uning ko'zibir lahzaga yigitning quyoshda qorayib bronza tusiga kirgan, kuch-quvvat yog'ilib turgan, buqaniki singari yog'on va muskuldor bo'yniga tushdi... sizning tasavvurida, agar hozir yigitning bo'ynidan quchoqlasa, uning butun kuch va qudrati o'ziga o'tadigandek edi".) Ruf ham Martin singari birinchi uchrashuvdayoq sqaydo bo'lib qoladi. Birinchi uchrashuvdayoq maftun bo'lish motivi "Sarob"da ham xuddi shunday: "o'zining vahima bilan o'tmaslangan zehni zalning eshigidan chiqqanidan so'nggina asliga qaytdi: yonida sog'lom, harbir harakatidan kuch-quvvat aks etib turgan bejirim yigit

³⁸London, Jack "Martin Eden", London, Project-Gutenberg book, 2010

borardi". Ikkala qizni maftun etgan jismoniy sog'lomlik, kuch-quvvat bir necha o`rinlarda takror-takror aytib o`tiladi.

Umuman, har ikki romanning boshidanoq bu juftliklarni tabiat aynan bir-biri uchun yaratganligi ma'lum bo`ladi. Ammo o`rtada ijtimoiy tengsizlik yotar edi, mana shu ijtimoiy tengsizlik ularning turlicha tarbiya olishlariga sabab bo`lgan edi. Ruf va Martinning oldida ham, Munisxon va Saidiyning oldida ham ijtimoiy tengsizlik, atrofdagilarning bir-biriga zid dunyoqarashi va ikki xil tarbiya asoratlarini yengishdek murakkab vazifa ko`ndalang bo`ladi. Ruf ham, Munisxon ham tabiat bergan tuyg`uni jamiyat qoidalariga uyg`unlashtira olmay qiynaladilar. Pirovardida esa, ijtimoiy munosabatlar, atrofida gilarning ta'siri ustun kelib, ularning har ikkisi o`z sevgilisidan gina emas, yuragini to`ldirgan ulug`vor muhabbatdan ham yuz o`giradi. To o`shanga qadar ham bu ikki mag`rur qiz past tabaqadan chiqqan yigitga bo`lgan sevgisini tan olishni istamay, Ruf bu muhabbatni Martinni qayta tarbiyalash, Munisxon esa "xolis, beg`araz, garchi o`zi uchun bir hadar erishroq tuyulsa ham, o`rtoqlik munosabati" pardasi ostiga yashirishga harakat qiladilar.

Qahramonlar xarakterini ishlashda ham mushtaraklik ko`zga tashlanadi. Martin - 20 yoshli yigit, u har qancha sog'lom va kuch-quvvatga to`la yigit bo`lmasin, ruflar muhitida juda tortinchoq kishiga aylanadi, har bir harakatidan xijolat bo`ladi. Martin uchun Ruf qo`l yetmas farishtaga aylanadi: "Her body was more than the garb of her spirit. It was an emanation of her spirit, a pure and gracious crystallization of her divine essence. This feeling of the divine startled him. It shocked him from his dreams to sober thought. No word, no clue, nor hint, of the divine had ever reached him before. He had never believed in the divine. He had always been irreligious, scoffing good-naturedly at the sky-pilots and their immortality of the soul. There was no life beyond, he had contended; it was here and now, then darkness everlasting. But what he had seen in her eyes was soul – immortal soul that could never die. No man he had known, nor any woman, had given him the message of immortality. But she had. She had whispered it to him the first moment she looked at him. Her face shimmered

before his eyes as he walked along, – pale and serious, sweet and sensitive, smiling with pity and tenderness as only a spirit could smile, and pure as he had never dreamed purity could be. Her purity smote him like a blow. It startled him. He had known good and bad, but purity, as an attribute of existence, had never entered his mind. And now, in her, he conceived purity to be and superlative of goodness and of cleanness, the sum of which constituted eternal life.” (30-31). “His lover’s imagination had made her holy, too holy, too spiritualized...”(95) (“Oshiqi beqarorboʻlgan Martinning tasavvuri qizni shu qadar muqaddas, shu qadar ilohiy, begʻubor malak darajasiga olib chiqib qoʻygan edi...” (105).) Martin hatto oʻz uyiga taklif qilgan Rufnikiga oradan qancha muddat oʻtkazib borish singari joʻn masala bilan boshini haftalar davomida qotirib ("He did not know the proper time to call, nor was there anyone to tell him"(55). ("qancha vaqt oʻtgandan keyin siznikiga borish odobga muvofiq ekanligini u bilmasdi, ayni vaqtda unga buni tushuntiradigan odam ham yoʻq edi" (59)), axiyri kutubxonachidan maslahat soʻraydi. Saidiy ham 23 yoshli yigit. U ham Munisxonning oldida oʻzini juda nochor, qarib va past sezadi. Saidiy ham Munisxonni koʻkdagi malak deb tasavvur qilganidan Martinnikidan ham joʻnroq masalani vahima bilan oʻzichida muhokama qiladi: kitob oʻqish bahonasida Munisxonni hujrasiga boshlab keladi-yu, "Saidiy oʻtirishini ham bilmay qoldi, turishini ham. "Choy qoʻyish kerakmi, yo choy quysam buni oʻzim bilan tenglashtirgan, koʻkdagi farishtani yerga tushirgan boʻlamanmi?" degan savol boshiga xuddi barmoq bilan turtganday turtar edi. U hamma ishni qilibdi, hamma tayyorlikni koʻribdi, ammo shuni hal qilib qoʻyish esiga kelmabdi" (18). Boshqa bir oʻrinda esa yer islohoti masalasida komsomollar guruhi bilan qishloqqa chiqqan Saidiy daf'atan Murodxoʻja domlaga duch kelib qoladi. "Saidiy allaqachon salom berishga qaror berdi, - deb tasvirlaydi bu holatni adib. - ammo soʻrashish kerakmi, yo boʻlmasa soʻrashish ulugʻ kishini yoʻldan qoʻyib ogʻrintirish boʻladimi, shuni tezdan hal qilolmadi" (61).

Har ikki yigit ma'shuqa nazariga tushish uchun favqullodda vaziyat tuzilishini orzu qiladilar. Martin Rufning otasi mister Morz "longing all the

while for some quick danger of death to threaten, so that he might spring in and save her father" (49) ("...hozir katta bir falokatga uchrasa-yu, bu falokatdan uni qutqarib qolsam, deb astoydil orzu qilardi" (51)). Saidiy ham xuddi shunga o`xshashroq: "Shu qizning boshiga bir kulfat tushsa-da, qutqaradigan kishi yagona men bo`lsam", der edi" (6). Martin ham, Saidiy ham o`zlarini tanlagan mahbubaga nomunosib deb bilganlaridan iztirob chekadilar, uning muhitida o`zlarini qo`pol va noloyiq sezadilar. Martin va Rufning ham, Saidiy va Munisxonning ham muloqot qilib turishlariga vosita bo`ladigan badiiy detal - kitoblar, mutolaa edi. Kitob mutolaasi vosita bo`lganligi har ikki asarda ham bir-biriga o`xshash epizod orqali muayyanlashtiriladi. Birgalikda kitob o`qish fursatlaridan birida Martin o`z xayollariga berilib ketadi-yu, buni payqab qolgan Ruf " You were not following a word, - she pouted. Then she laughed at him, delighting in his confusion, and as he looked into her frank eyes and knew that she had divined nothing of what he felt, he became abashed" (95)("Siz hech nima eshitmadingiz, - dedi qiz o`pkalanib. Keyin yigitning xijolat bo`lganidan zavqlanib, shu zahoti jilmayib qo`ydi. Martin uning chaqnab turgan ko`zlariga tikilib, o`z dilida yuz bergan tuhyondan Rufning tamomila bexabar ekanligini angladi va uyalib ketdi" (106))³⁹.

"Sarob"da ham shunday epizod bor: "Saidiy yana joyiga o`tirib, o`zini diqqat bilan quloq berayotganga soldi, ammo qulog`iga gap kirmas edi. ... deb o`qidi Munisxon oxirgi jumlaning va kitobni nariga surib, Saidiyga qaradi, - o`lay agar, shu oxirgi sahifadan hech narsa tushunmadingiz!"⁴⁰..

- Nega, - dedi Saidiy shosqilib, - juda diqqat bilan quloq soldim. Aksincha, aksincha, shu oxirgi sahifa jo`nroq yozilgan ekan.

- Xo`p, oxirgi jumlada Marks, Darvin nima qilibdi Ayting-chi..

Saidiy shu damda bu jumlaning ma'nosini emas, unda Darvin, Marks borligini ham bilmas edi, kitobni olmoqchi bo`lgan edi, Munisxon qo`ymadi, o`qimasdan taxminan bo`lsa ham ma'nosini aytishga majbur qildi va ko`ziga

³⁹London, Jack "Martin Eden", London, Project-Gutenberg book, 2010 y.

⁴⁰ Қаххор А. Сароб. – Т., "Шарқ" нашриёт-матбаа коцернининг бош тахририяти, 1995. – 240 б.

tikilib turib oldi. Saidiy, peshonasi yaltiradi, cho`ntagidan ro`molcha izlab topolmay shu bahona bilan o`rnidan turdi-da, nari-beri yurdi. Munisxon kitobda ostiga chizilgan jumalarni daftariga ko`chirayotib, piching otdi:

- Dam olmasdan bir necha soat o`qish ko`zni tindirar ekan-da! Ehtiyot bo`ling, o`zingizni biron narsaga urib olmang tag`in!..Bu so`zni shunday ohangda aytdiki, Saidiy orqasida turib "O, bilgan ekan" deb labini tishladi, qo`ng`iroq sochlarini changalladi" (19). Har ikki romandagi velosiped detali, velosipedda shahardan tashqariga sayrga chiqish epizodi, Martin va Saidiyning matbuotda chiqadigan asarlarini ustunlar bilan o`lchashi, yozuvchilikdan maqsad - boylik orttirish orqali ma'shuqa vasliga erishish ekanligi, jamiyki orzu-amallaridan judo bo`lgan oshiqqlarning bir payt qo`l yetmas yuksaklikda deb tasavvur qilingan, pirovardida esa bosh egib kelgan mahbubani rad etishlari kabi motivlar ham mushtarak⁴¹.

Ammo bu mushtarakliklar Abdulla Qahhor romanining original asar ekanligini rad etishga asos bo`lolmaydi. Chunki o`xshash syujetlar boshqa yozuvchilar ijodida ham uchrab turadi. Jumladan, "Anna Karenina" syujetining "Bovari xonim" romani bilan mushtarakligi L.Tolstoyning benazir romani qimmatini zarracha pasaytirmaydi. Faqatgina "adabiyotda obyektiv tarzda yuz beradigan, so`z san'atining ichki qonuniyati, an'anaviylik bilan bog`liq o`xshashliklarni taqliidchilikdan farq qilmoq kerak"⁴².

Bundan tashqari, badiiy ijod sohasida "sayyor syujetlar" degan tushuncha ham borki, bunda yozuvchi ongli ravishda tayyor syujet holiplaridan foydalanadi. Sharhda Farqod va Shirin, Layli va Majnun, Vomih va Uzro afsonalari va qur'oniy rivoyatlar bir qator asarlarning yaratilishiga asos bo`lgani

⁴¹ Абдуғопиров А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида). Филол.фанл.докт... дисс.автореф. – Т., 2007

⁴² Шодиев Н. «Сароб» романидаги икки психологик тасвир воситаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, № 4. – 66-69-б.

singari, g`arbda Romeo va Juletta, Faust, Hamlet, Qirol Lir bilan bog`liq syujetlardan tashqari Injil rivoyatlaridan foydalanish ham keng tarqalgan⁴³.

Binobarin, birgina XX asrning o`zida sho`ro adabiyoti hududida Iso payhambar bog`liq rivoyatdan ijodiy foydalanish hodisasini M.Bulgakovning "Usta va Margarita" hamda Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanlarida ko`ra olamiz. Yozma adabiyotda folklor syujetlarining qayta ishlanishi ham shunga o`xshagan hodisadir. Sayyor syujetlardan foydalanish, xususan, Sharh mumtoz adabiyotida ancha taraqqiy qilgan. Birgina "xamsa"navislik an'anasini oladigan bo`lsak, undagi besh dostondan to`rttasi bir xil syujet asosida yaratilgan. Sharqda badiiy matnni baholash belletristikaga emas, o`ziga xos ravishda g`oyaga, badiiy mahoratga asoslanishidan kelib chiqmagan yevropalik adabiyotshunoslar uzoq muddat Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"ini Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari tarjimai sifatida baholab keldilar. Mashhur sharqshunos Ye.E.Bertels birinchi bo`lib "Lison ut-tayr"ning original asar ekanligini isbotlab berdi. Avvaldan mavjud syujetni qayta ishlash Yevropa adabiyotida ham kuzatiladi. Yevropa klassisistlari ongli ravishda antik adabiyot an'analarini va shu bilan bog`liq ravishda muayyan syujetlarini hamqayta tikladilar.

Professor Ozod Sqarafiddinov Abdulla Qahhorga Jek London romani ta'siri xususida huyidagilarni yozadi: "...yozuvchi o`zasari uchun roman janrini tanladi, biroq u o`zniyatini bevosita amalga oshirishga kirishguncha ham ancha vaqto`tdi... Xo`sh, ana shu ibtidosi va intihosi yo`q voqealar to`fonini, aralash-quralash hodisalarni, olomonga o`xshash xarakterlar dunyosini qanday tasvirlash kerak. Ularning hay biri romanda qanday o`rinni egallashi, qancha sahifani band qilishi kerak. Adib bu savollar ustida ham ko`p bosh qotirishga majbur bo`ldi. U kalavaning uchini qidirib, iztirob chekib yurgan kezlarda uning qo`liga mashhur Amerika yozuvchisi Jek Londonning asarlari tushib qoladi.

⁴³ Машрабова Г. Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" достонида руҳият тасвири // Навоийга армуғон. Т., А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2003. – 128-130.

Abdulla Qahhor 1944- yilda yoshlar bilan qilgan suhbatida Jek London asarlarini o`qiganini eslaydi: "Jek Londonning "Den plameneet" degan bir romani bor... Adib maqolalarida Jek Londonning faqat shu asarini o`qiganini tilga oladi, ammo aniq aytish mumkinki, Amerika yozuvchisining nisbatan kam ma'lum bo`lgan asarini o`qigan Abdulla Qahhor uning mashhur asarlaridan biri bo`lmish "Martin Iden"ni o`qimay qolmagan. Jek Londonning bu romani Abdulla Qahhorga o`z romanining kompozitsiyasini topib olishga yordam bergan. Har ikki romanni o`qigan kitobxon ular o`rtasidagi ayrim o`xshashliklarga e'tibor beradi... Ikki asarning syujet chiziqida muayyan nuqtalarda yaqinlik bor, biroq bundan qandaydir boshqacha xulosalar chiqarib bo`lmaydi.

"Martin Iden"ni o`qigach, Abdulla Qahhorning xayolotida javlon urgan har xil xarakterlar bir safga tizilgandek, turli to`qnashuvlar joy-joyini topgandek, barcha voqealar oldinma-ketin o`z o`rnini egallagandek bo`ladi"⁴⁴.

Shu o`rinda ta'kidlash kerakki, Abdulla Qahhorning adabiy-tanqidiy maqolalari ichida "Martin Iden"ni o`qiganligi haqidagi qayd ham uchraydi. Adib 1940-yilda "Hayot qo`shig`i" nomli taqrizida: "Shu yerda Jek London personajlaridan biri esga tushadi...", - deb romanning qisqacha mazmunini bayon qiladi.

Xo`sh, Abdulla Qahhor romanining o`ziga xosligi nimalarda ko`rinadi? - degan masalaga qaytsak. Ma'lumki, roman janrining bosh xususiyatlaridan biri - unda katta tarixiy-ijtimoiy davr manzaralarining keng planda berilishidir. Abdulla Qahhor Turkiston hududida yangilangan ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatdagi ziyolilar hayotini milliy adabiyotda birinchilardan bo`lib dadil ko`tarib chiqdi<sup>45</sup>. "Martin Iden" voqealari olis Amerikada, rivojlangan kapitalizm sharoitida bo`lib o`tsa, "Sarob" o`z qonun-qoidalarini qonxo`rlarcha o`rnata boshlagan mustabid sho`rolar davri voqealarini o`z ichiga oladi. Jek London kapitalizm sharoitida

⁴⁴ Шарафиддинов О. Истеъдод жилolari // Қаҳҳор А. Асарлар. Олти томлик. 1-том. – Т., F.Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967 йил. – 5-37-б.

⁴⁵ Абдуғопиров А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида). Филол.фанл.докт... дисс.автореф. – Т., 2007

qo'lg'a kiritilgan kutilmagan omad va muvaffaqiyat ham shaxsning ma'naviy tanazzulini to'xtata olmasligini, shu orqali butun jamiyat ichdan chirib borayotganini ko'rsatgan bo'lsa, Abdulla Qahhor - mazmun-mohiyati, qaysi birining haq yoki nohaq ekanligidan qat'iy nazar - eskilik va yangilik o'rtasidagi ayovsiz kurashni, hali uzoq yillar hukm surajak hukumatning o'z qonunlarini o'rnatish uchun o'ziga qarshi qaratilgan har qanday kuchni shafqatsizlik bilan, yovuzlarcha ezib-yanchib olg'a borishini; bunda shaxsning intilishlari ham, iste'dodi va kuchi ham e'tibordan ma'lum maqsad bilan chetda qoldirilishni; hur fikrlilikka emas, oddiygina plyuralizm ham juda xavfli hodisa sifatida barham toptirilishini favqulotda san'atkorona yoritadi.

Jek Londonning qahramoni burjua jamiyatiga xos ravishda - tasodifiymi, qonuniymi - o'z potensialini yuzaga chiqara oldi; u jamiyatda buyuk yozuvchi sifatida e'tirof etildi, katta boylik egasiga aylandi. Martin Iden fojiasining sababi ko'pgina tadqiqotchilar ko'rsatganidek, uning individualizm qobiqlarida o'ralashib qolganligida ham, ma'naviy tanazzulida, muhabbat bilan bog'liq mojaralarda ham bo'lishi mumkin. Ammo oldindan aytish mumkinki, mazkur dissertasion ish doirasidagi kuzatishlarimiz bu fojining yana bir ruhiy-psixologik sababi borligini ko'rsatdi - Martin Iden yozuvchi sifatida o'ziga berilgan potensialni sarflab bo'ldi, uning hayoti mazmunini tashkil qilgan ijod quvvati tugadi, shunda u xuddi zaryadi tugagan mexanizm singari o'chishga mahkum bo'ldi. Martin Iden buni g'ayri tabiiy ravishda angladi va o'z joniga qasd qildi⁴⁶.

Abdulla Qahhor qahramoni yashagan ijtimoiy-tarixiy muhit esa shaxsning ijodiy kuchlarini bo'qish, bu muhitning mohiyatini anglab yetishi mumkin bo'lgan kishilarni ularning o'zlarining bo'qilgan ijodiy kuchlari alangasida yoqib yuborishdan iborat dahshatli intizomi bilan xarakterlanadi.

Saidiy o'zi yashayotgan tarixiy zamonda ikki qudratli mafkuraning to'qnashuvi o'rtasida g'olib, zamon daryosining qaysi tarafga qarab og'a

⁴⁶ Богословский В. К истории реализма в США. Творчество Джека Лондона и Эптона Синклера [1900-1917]. Автореф. дисс... доктора филол. наук. - М., 1963. - 39 с.

boshlaganini anglamay yengilayotgan kuchlar tarafga o'tib qoladi va g'uncha iste'dodi gul ochmasdan turib halokatga yuz tutadi.

Saidiyning Salimxonlar guruhiga qo'shilib qolishini adib uch psixologik asos orqali juda chuqur dalillagan. Bu asoslardan ikkitasi asarda juda aniq ko'rsatilgan. Saidiy aksil hukumatdorgilar guruhiga borib qo'shilishi, avvalo, Munisxon –muhabbat tufayli sodir bo'ladi. Avvalo, Saidiy ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan Ehsonlar tabaqasidan edi. Bundan tashqari, dastlabki boblariga nazar tashlasak, Saidiy Ehsonning o'qishga kirish haqidagi fikriga qo'sqilib, pochchasining uyidan ketadi; kollektivlashtirishni targ'ib qilish guruhida qishloqqa chiqib kelgandan keyin real hayot voqealarini ko'rgach, Munisxon yer islohotiga munosabatini so'raganda: "Men ilgari qarshi edim, hozir tarafdorman" (70) deb javob beradi, chunki u yangi hukumatning tadbirlari omma tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligining bevosita guvohi bo'ladi; yer islohoti xususida roman yozishga chog'lanadi.

Ikkinchi asos shuki, salimxonlar guruhidagilar undagi barcha ijodkor shaxslarda bo'ladigan dovrug' qozonish istagini bekam-u ko'st amalga oshiradigan odamlar bo'lib tuyuladi. Bu ikki asos asarda ochiqdan-ochiq ko'zga tashlanadi.

Ayni paytda asarda Saidiyning o'z yo'lini tanlashiga isqora tarzida berib o'tilgan uchinchi bir asos ham bor. Bu Saidiy qalbining chuqur yerlarida elas-elas miltiragan qasos, alam tuyg'usi edi. Yozuvchi juda qisqa satrlarda "Saidiyning otasi mashina-boshon, mashina-dam bilan ishlaydigan katta bir korxona ochmoqchi bo'lib, anchagina temirchilarni o'g'la"gani, "bu ishga talay sarmoya xarjla"gani hamda "ish boshlanmasdan sinib, yer bilan yakson bo'lgani, "o'zini os"ganini aytib o'tadi (9)⁴⁷.

Otasining taqdiri uning qalbida joriy hukumatga qarshi alam tuyg'usini uyg'otishi ruhiy jihatdan mumkin bo'lgan holat. Muhabbatva shon-shuhrat uruhi mana shu ilg'ab-ilg'anmagan qasos zaminiga tushadi-yu, Saidiyning yo'li

⁴⁷ Қаххор А. Сароб. – Т., "Шарқ" нашриёт-матбаа коцернининг бош тахририяти, 1995. – 240 б.

va taqdirini hal qiladi. Bularning uchalasi ham juda kuchli ruhiy asoslar bo`lib, ikkilamchi tashqi omillar bilan emas, birlamchi - ichki subyektiv psixologik omillar bilan bog`langan. Chunki har qanday tashviqot-targ`ibot, tarbiya, tashqi turtki bunday kuchli ruhiy omillarga, ichki zaryadga taslim bo`lishi shubhasiz.

Shu tariqa qahramonlar fojiasi ham ijtimoiy-tarixiy muhitdan keltirib chiqariladi, ularning fojiasi ikki xil xarakterga ega. Saidiy fojiasi Martin Iden fojiasidan ko`ra chuqurroq, mudhishroq, alamliroq; ruhiy jihatdan turli aspektlarda asoslangan. Martin Iden o`zining asosiy maqsadiga erishish, o`z manziliga yetish pirovardida fojiaga yuzlansa, Saidiyda "o`n gulidan bir guli ochilmay xazon bo`lish" fojiasi aks ettirilgan⁴⁸.

Shaxsni, uning iste'dodini bo`g`uvchi jamiyat haqidagi tasavvur Abdulla Qahhorda tasodifan tug`ilgan, o`tkinchi qarash bo`lmay, u "Sarob" yaratilganidan keyin oradan yillar o`tib – 1957- yilda ham bu xil fikrga qaytadi: "Muhtaram tanqidchilarimiz Muhimiyning ijodidan bitta shaftoli danak topib olib, "mana, ko`rdilaringmi, Muhimiy ham shaftoli yegan", deyishadi. Menimcha, uning haqida boshqa narsa deyish kerak. Bu ajoyib talantning fojiasi, zamonning temir iskanjasi, fikrlarga shira tushiradigan, hatto xitoy xotinining oyoqiday qilib qo`yadigan sharoit, kolonial va feodal hayot sharoiti to`qrisida gapirish kerak.

... Muqimiyning demokrat deb e`lon qilishdan ko`ra, uning talantini, fikrini o`stirgani qo`ymagan zamona haqida ko`proq gapirish lozim".

"Martin Iden" va "Sarob" tasvir hamrovi nuqtai nazaridan ham bir-biridan farq qiladi. Agar diqqat qilinsa, Jek London romanining barcha bo`limlarida Martin bilan bog`liq voqealar qalamga olinadi - romanda bosh qahramon ishtirok etmagan birorta ham bo`lim yo`q.

Adib ijtimoiy hayot manzaralarini Martin atrofida, Martin ishtirokida kechgan voqealar prizmasi orqali tasvirlaydi; voqealar qamrovini shu bilan

⁴⁸Хамракулова Х. Абдулла Қаҳҳорнинг “Сароб” романида шахс фожиаси талқини. Фил.фанл.номз... дисс.автореферати. – Т., 2004. – 26 б.

chegaralab qo'yadi. U o'z o'quvchisini hayotning qaysi jabhasiga olib kirmasin, o'quvchiga albatta Martin hamroqlik qiladi. Ehtimol, xuddi shuning uchun ham bosh qahramonning ismi-sharifi sarlavhaga olib chiqilgan. Bu romanning syujet liniyasi bir nuqtadan chiqib uzayib borayotgan yagona to'qri chiziqni eslatadi.

"Sarob" voqealari asosan Saidiy ishtirokida kechsa-da, ayrim bo'limlarda biz uni uchratmaymiz. Abdulla Qahhor Salimxon va Munisxon o'rtasida turmush qurish masalasida bo'libo'tgan suhbatga Saidiyni olib kirmaudi; tergov-sud jarayonlari hukm surgan haqsizlik va manfaatparastlik tergovchi Mirza Muhiddin bilan bog'liq voqealarda ochib beriladi.

Bu ikki romanni bir-biridan farqlaydigan eng asosiy tafovut, albatta, badiiy g'oyadir. Tipologik o'xshashliklar va o'zaro ta'sirning nazariy muammolarini tadqiq qilgan A.Qosimov: "...tipologik tadqiqotlarda nafaqat o'xshash adabiy hodisalarni aniqlash, balki mug'oyasa obyektlari o'rtasidagi o'ziga xos, original badiiy yechimlarning negiziga ko'proq e'tibor qaratish zarur" , - deb yozadi. Jek London ham, Abdulla Qahhor ham roman janri talabidan kelib chiqib, muayyan ijtimoiy-siyosiy tuzumning badiiy tarixini yaratganlar, harikkala asarda ham mualliflar nobop ijtimoiy tuzumning noinsoniy muhitini ob'ektiv tarzda ochib tashlaganlar. Ayni paytda Jek London moddiy qadriyatlar birinchi o'ringa chiqqan jamiyatda ma'naviy tanazzulning muharrarliligi, harikkisini o'zida birvarakayiga mujassamlashtirmoqchi bo'lganlarning halokatga mahkumligini san'atkorona ochib bergan bo'lsa; Abdulla Qahhor hukmron tuzum shaxsni katta bosim bilan bosib turgan muhitda shu hukmron kuch ketayotgan yo'ldan bormaslik, unga qo'shilmaslik qanday fojialarga olib kelishini katta badiiy mahorat va ijodkorga xos savhi tabiiy bilan tasvir etdi.

Jek London romanining asosiy g'oyasi shundan iboratki, Martin yashagan jamiyatda pastki tabaqa hayoti ham, yuqori tabaqa hayoti ham yuksak insoniy orzularni amalga oshirish uchun yaroqsizdir. Inson bu ikki toifa ichida ham tom ma'noda baxtli bo'lishi mumkin emas. Ularning birida muhtojlik va qashshoqlik insonni ichkilikbozlik va buzuqlikka sudrab ruhan tubanlashtirsa, ikkinchisida

mol-mulkka mukkasidan ketish tufayli tuqiladigan soxtalik ma'naviy qiyofani siyqalashtirib yuboradi.

Ularning birida inson orzularning amalga oshmasligidan bo`qilsa, ikkinchisida intilishlarning siyqaligidan nafas ololmaydi. Chinakam insoniy intilish va a'mollar uchun tug`ilgan Martin kabilarga bu jamiyatda o`rin yo`qdir⁴⁹.

"Sarob"ning original ijod namunasi ekanligi, xususan, badiiy psixologizmlarning berilishida yorqinroq namoyon bo`ladi. Chunki ijodkor mahorati, eng avvalo, inson ruhiyatining to`qri anglanishi va uning muvofiq vositalar orqali tasvirlanishida namoyon bo`ladi. Binobarin, badiiy psixologizm asarda qalamga olingan hayot voqea-hodisalarga tiriklik, qahramonlar siymosiga hayotiylik baxsh etadi - roman voqealarini favqulodda jonlantirib yuboradi.

⁴⁹ Абдуғопиров А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида). Филол.фанл.докт... дисс.автореф. – Т., 2007

III bob bo'yicha xulosa

Umuman, Jek London faqat Martin yashagan jamiyatda emas, u yoki bu darajada umuman insonlik jamiyatlariga xos bo'lgan hur fikrlilikni, o'ziga xoslikni, yangilikni sig'ishtira olmaslik psixologiyasi; yakranglik, dogmalarga mutelik psixologiyasi; ko'pchilikka xos bo'lmagan qarashlardan qo'rquv psixologiyasi; moddiy unchilik psixologiyasini fosh qiladi. "Sarob"da esa sho'ro mamlakatida, jumladan, O'zbekistonda ham 70 mobaynida hukm surgan qaramlik, qo'rquv, birxillik psixologiyasining endigina shakllana boshlagan kezlari qalamga olingan.

Har ikki romanda ham davr psixologiyasiga moslasha olmagan qahramonlarning tragik qismati qalamga olingan. "Martin Iden" avtobiografik xususiyatga ega. Shuning uchun ham Jek London ijodkor obrazini yaratishda ham o'z tabiati va tajribalaridan kelib chiqdi. Abdulla Qahhor ham, garchand o'zi rad qilgan qarashlar vakillari obrazini yaratgan bo'lsa-da, ijodkor va ijod psixologiyasini berishda, shubhasiz, o'zining ijodkor sifatidagi tabiati va faoliyatiga suyangan.

XULOSA

Bugungi Istiqlol davrida jahon adabiyotshunosligida istifoda etilayotgan rang-barang tadqiq metodlarini tadbqiq etish shuni ko`rsatadiki, XX asr o`zbek adiblarining asarlari har qanday nuqtai nazar uchun, har qanday metod uchun material bera oladigan chuqur va qavat-qavat mazmunli badiiy matnlardir. Xususan, keyingi yillarda milliy adabiyot namunalarini jahon adiblari asarlariga qiyosan tahlil etish tamoyili kuchaydi. Bu esa, tabiiyki, o`zbek milliy adabiyotining jahon adabiyoti kontekstidagi o`rnini belgilash, ularning jahoniy adiblar ijodi paradigmasidagi o`ziga xos o`rni va himmatini tayin etishning asosiy yo`llaridan biridir. Rus sharhshunosi XX asrda E.Bertelsning "Navoiy va Attor" tadqiqoti bilan ibtido va shiddat olgan qiyosiy-tipologik tadqiq usuli bugun o`nlab tadqiqotchilar tomonidan milliy adabiyotning umumjahon adabiyoti miqyosidagi yutuqlari kashf etilishiga asos bo`lmoqda. Mazkur dissertasion ish ham mana shunday tadqiqotlar yo`nalishida yaratilgan bo`lib, unda XX asr boshlaridan shakllangan yosh o`zbek nasrini jahoniy miqyoslarga ko`targan Abdulla Qahhor ijodi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ijod qilib, Amerika adabiyotini yangi boshichga ko`targan Jek London asari bilan qiyosiy-tipologik planda tadqiq etildi. Dissertatsiya doirasida olib borilgan kuzatishlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Kambag`al oiladan chiqqan amerikalik adib Jek London XIX asr oxiri - XX asr boshlarida o`zfaoliyati va asarlari bilan butun jahon afkor ommasinining diqqatini o`ziga qaratdi. Jek London ijodi va hayotiy biografiyasi adib bilan zamon nuqtai nazaridan deyarli ketma-ket yashagan, ijtimoiy kelib chiqishi va hayot yo`li ham ma'lum ma'noda yaqinbo`lgan Abdulla Qahhor diqqatini ham tortdi. Abdulla Qahhor, o`zi e'tirof etganidek, Jek London asarlari bilan tanish bo`lgan. Adabiyotshunoslarning kuzatishlariga ko`ra esa, u Jek London adabiy maktabidan bevosita ta'sirlangan. Aytish mumkinki, Abdulla Qahhoro`zining "Sarob" romanini yaratishda amerikalik

adibning nafaqat "Martin Iden" romani syujeti skeletidan, balki yozuvchining biografiyasidan ham foydalangan.

2.Jek London hayotning butun mashaqqatlari, ziddiyatlari, miqyoslari bilan to'qnash keladi va keyinchalik bularning barini o'z asarlarida badiiy qayta gavdalantiradi. Jek Londonning adabiy faoliyati "Koll" gazetasi e'lon qilgan tanlovda ishtirok etish va g'olib bo'lishdan boshlanadi. Adibning siyosiy chiqish va maqolalari "Sinflar kurashi" ("The War of the Classes", 1905) hamda "Revolyusiya" ("Revolution and Other Essays", 1910) to'plamlariga jamlandi. Jek London butun ijodi davomida 19 roman va povest, 152ta hikoya, 3 ta piesa yaratdi. Uning "Dengiz bo'risi" ("The Sea Wolf"), "Qor mamlakati qizi" ("A Daughter of the Snows"), "Temir tovon" ("The Iron Heel"), "Martin Iden" ("Martin Eden"), "Vaqt kutmaydi" ("The Burning Daylight"), "Oy vodiysi" ("The Valley of the Moon"), "Elsinordagi isyon" ("The Mutiny of the Elsinore") kabi romanlari, qator povest va hikoyalari, pesalari butun jahon kitobxonlarining sevimli mulkiga aylangan.

3.Abdulla Qahhor, adabiyotshunoslikda qayd qilinishicha, Jek Londonning "Martin Iden" romanidan ijodiy ilhomlangan. Bu ikki asar o'rtasidagi mushtaraklik qahramonlarni tanlash va voqealar rivojida, motivlararo, qahramonlar xarakterini ishlashda, ayrim voqealarda, ayrim tasvirlarda, badiiy detallarda namoyon bo'ladi.

4.Bu ikki roman o'rtasidagi tafovut esa quyidagilarda ko'rinadi:

- 1) roman voqealari bo'libo'tgan tarixiy-ijtimoiy muhit;
- 2) muayyan voqealarni qalamga olishdan ko'zda tutilgan g'oyaviy maqsad;
- 3) bosh qahramon fojiasining ikki xil xarakteri;
- 4) badiiy psixologizmlarning berilishi kabilardir.

5."Martin Iden" va "Sarob" romani voqealari ikki xil ijtimoiy-siyosiy muhitda yuz berganligidan ularda ikki xil ijtimoiy psixologiya yoritib

berilgan. Jek London XX asr boshlarida Amerikada - kapitalizmning yuqori boshichi sharoitida yashayotgan odamlar hayotini qalamga oladi; bu muhitda ijtimoiy psixologiyaning ikki ko'rinishi avj olgan edi:

1. Insonga uning insoniy sifatlariga qarab emas, qancha va qanday mulk egasi ekanligiga qarab munosabatda bo'lish, insoniylik nuqtai nazaridan to'g'ri yoki noto'g'riligidan qat'iy nazar, ayrim bir qarashlarning keng yoyilishi, omma tomonidan ma'qullanishi va yozilmagan qat'iy qonun shaklini olishi. Martin insonning qudrati - o'zining ruhiy kuchlarini anglab, uni reallashtirishda deb hisoblasa, atrofida tilarning deyarli barchasi insonning qudrati jamiyatga moslashib olib, yaxshi kun kechirishda, mulk egasi bo'la olishda deb hisoblaydilar.

2. E'tirof etilish yoki e'tirof etilganlar psixologiyasi. Bunga ko'ra, jamiyat har bir sohada o'z liderlarini saylab oladi-da, keyin ularning soyasiga sig'inadi, har qanday o'ziga xoslikni o'sha liderlariga majburan moslashtiradi. Umuman, Jek London faqat Martin yashagan jamiyatda emas, u yoki bu darajada umuman insonlik jamiyatlariga xos bo'lgan hur fikrlilikni, o'ziga xoslikni, yangilikni sig'ishtira olmaslik psixologiyasi; yakranglik, dogmalarga mutelik psixologiyasi; ko'pchilikka xos bo'lmagan qarashlardan qo'rquv psixologiyasi; moddiy unchilik psixologiyasini fosh qiladi. "Sarob"da esa sho'ro mamlakatida, jumladan, O'zbekistonda ham 70 mobaynida hukm surgan qaramlik, qo'rquv, birxillik psixologiyasining endigina shakllana boshlagan kezlari qalamga olingan.

Har ikki romanda ham davr psixologiyasiga moslasha olmagan qahramonlarning tragik qismati qalamga olingan. "Martin Iden" avtobiografik xususiyatga ega. Shuning uchun ham Jek London ijodkor obrazini yaratishda ham o'z tabiati va tajribalaridan kelib chiqdi. Abdulla Qahhorham, garchand o'zi rad qilgan qarashlar vakillari obrazini yaratgan bo'lsa-da, ijodkor va ijod

psixologiyasini berishda, shubhasiz, o'zining ijodkor sifatidagi tabiati va faoliyatiga suyanan.

Xulosa shuki, Abdulla Qahhor Jek Londonning "Martin Iden" romani syujetidan ta'sirlangan bo'lsa-da, badiiy g'oya jihatdan ham, qahramonning fojiasi nuqtai nazaridan ham butunlay yangi, original asar yaratdi. Jek London orzulari amalga oshsa-da, ma'naviy tanazzulga uchragan iste'dod fojiasini qalamga olsa, Abdulla Qahhor jamiyat majahlab tashlagan iste'dod fojiasini ochib berdi. Bu asarlar uslub jihatdan ham bir-biridan farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma’naviyat”, 2010 y.
2. Karimov I. A. “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”, Toshkent, “O`zbekiston”, 1996 y.
3. Karimov I. A. “Vatan-sajdagoh kabi muqaddasdir”, Toshkent, “O`zbekiston”, 1996 y.
4. Каримов И.А. Асарлар. Т.5. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. -Т.: Ўзбекистон, 1997.- 384 б.
5. Каримов И.А. Асарлар. Т.8. Озод ва обод Ватан – эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 526 б.
6. Каримов И.А. Асарлар. Т.9. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 439 б.

II. Ilmiy-badiiy adabiyotlar:

7. Абдуғопиров А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсирнинг назарий муаммолари (А.де Сент-Экзюпери ва А.Камю ижоди мисолида). Филол.фанл.докт... дисс.автореф. – Т., 2007
8. Баданова И. Джек Лондон и его герой. Творчество Джека Лондона 1900-1910 гг. – Автореф.дисс... канд.филол.наук. – М., 1963. – 23 с.
9. Богословский В. Джек Лондон. – М., Просвещение, 1964. – 242 с.
10. Богословский В. К истории реализма в США. Творчество Джека Лондона и Эптона Синклера [1900-1917]. Автореф.дисс... доктора филол.наук. – М., 1963. – 39 с.
11. Быков В. Романы Джека Лондона. Автореф.дисс. ...канд.филол.наук. – М., 1966. -19 с.

- 12.Быков В.М. Джек Лондон. М. 1964.
- 13.Дюма А. Граф Монте-Кристо. Том II. – Москва, Эксмо, 2010. – 608 с.
- 14.Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литератур. – М., Прогресс, 1979. – 320 с.
- 15.Жирмунский В. Эпическое творчество славянских народов и проблемы сравнительного изучения эпоса. – М., Издательство АН СССР, 1958.
16. Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Т., Фан. 2006 йил. – 204 б.
- 17.Засурский Я. Американская литература XX века. – М., Издательство Московского университета, 1984. – 502 с.
- 18.Зверев А. Джек Лондон. М., 1975.
- 19.Зиёдуллаева Н. Ўзбек адабиётшунослигида ижодкор биографиясини ўрганиш муаммолари (Абдулла Қаҳҳор ҳаёти ва ижоди асосида). Фил.фанл.номз... дисс.автореферати. – Т., 2000. – 26 б.
20. Искусство и художник в русской прозе XIX века. – Ленинград, Издательство Ленинградского университета, 1989. – 560 с.
- 21.Николюкин А. Психография – «новый метод» в литературоведении США // Вопросы литературы, 1963 г., № 9. – с. 126-128.
- 22.Лондон Ж. Мартин Иден. – М., Огонёк, 1961.
- 23.Конрад Н. Запад и Восток. – М., Наука, 1972.
- 24.Новиков Л. Художественный текст и его анализ. – М., Русский язык, 1988. 304 с.
- 25.Лондон Ж. Мартин Иден. – Т., Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, [Кодир Мирмухаммедов таржимаси] 1968. – 432 б.
- 26.Лондон Дж. Собрание сочинений. Т. 1-14. – Москва, Правда, 1961.
- 27.Лондон Ж. Ҳикоялар. – Т., Davr press, 2010. – 228 б.
- 28.Машрабова Г. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достонида руҳият тасвири // Навоийга армуғон. Т., А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2003. – 128-130.
- 29.Мережковский Д. Акрополь. Избранные литературно-критические статьи. – Москва, Книжная палата, 1991. – 352 с.

30. Неупокоева Н. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М., Наука, 1976.
31. Ницше Ф. По ту сторону добра и зла. – М., Эксмо-пресс – Харьков Фолио, 1999. – 1056 с.
32. Олимов М. Ҳозирги ўзбек адабиётида пафос муамоси // Фил.фанлари номзоди... дисс. – Т., 1993.
33. Основин В. Драматургия Л.Н.Толстого. – М., Высшая школа, 1982. – 176 с.
34. Парандовский Я. Сўз кимёси // Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида О.Шарафиддинов таржималари. – Т., Маънавият, 2010. – 246 б.
35. Парчевская Б. Джек Лондон. Библиографический указатель. – М., 1969.
36. Стоун И. Моряк в седле. Биография Джека Лондона. М., 1960.
37. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т., Ўзбекистон, 1997.
38. Сулаймонов Ш., Тўхсонов Қ. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изохли луғати. – Бухоро, “Бухоро” нашриёти, 2009. – 160 б.
39. Султон И. Методнинг имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, 5-сон. – 12-22-б.
40. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т., Ўқитувчи, 1989. – 392 б.
41. Тимофеев Л. Основы теории литературы. – М., Просвещение, 1971. – 464 с.
42. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – Москва, Наука, 1991.
43. Фрейд З. Психология бессознательного. – М., Просвещение, 1989.
44. Фромм Э. Душа человека. – М., Республика, 1992. – с. 182
45. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т., “ЎАЖБНТ” маркази, 2003. – 361 б.
46. Чернишевский Н. Танланган адабий-танқидий мақолалар. – Т., Ўзбекистон Давлат бадиий нашриёти, 1956. – 326 б.
47. Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Т., Ёш гаврдия, 1988. – 256 б.

- 48.Шарафиддинов О. Истеъдод жилolari // Қаҳҳор А. Асарлар. Олти томлик. 1-том. – Т., Ғ.Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967 йил. – 5-37-б.
- 49.Шенталинский В. – Инқилобий кўриқхонадаги овлар // Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида [О.Шарафиддинов таржималари]. – Т., Маънавият, 2010. – 317-362-б.
- 50.Шодиев Н. «Сароб» романидаги икки психологик тасвир воситаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, № 4. – 66-69-б.
- 51.Ўраева Д. Ўзбек халқ лирик кўшиқларида параллелизмларнинг характери ва бадий-композицион вазифалари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т., 1993. – 24 б.
- 52.Қаҳҳор А. Асарлар. Олти томлик. Олтинчи том. – Т., Ғ.Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти 1967.
- 53.Қаҳҳор А. Озгина ўзим ҳақимда // Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Т., Ёш гвардия, 1988. – 249-255- б.
- 54.Қаҳҳор А. Сароб. – Т., “Шарқ” нашриёт-матбаа коцернининг бош таҳририяти, 1995. – 240 б.
55. Қаҳҳор А. Сароб. – Т., Ёш гвардия, 1967. – 292 б.
- 56.Қўшжонов М., Норматов У. Маҳорат сирлари. – Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968. – 219 б.
- 57.Ҳамрақулова Х. Абдулла Қаҳҳорнинг “Сароб” романида шахс фожиаси талқини. Фил.фанл.номз... дисс.автореферати. – Т., 2004. – 26 б.

III. Lug`atlar va ensiklopediyalar:

- 58.Исҳоқов Ё. Навоий лирикаси ва янги давр поэтикаси // Навоийнинг ижод олами. Мақолалар тўплами. – Т., Фан, 2001. – 46-66-б.
- 59.Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., Фан. 1983. – 168 б.

60.Кожевникова В., Николаева А. Литературный энциклопедический словарь.—М., Советская энциклопедия,1987.

61.Литературный энциклопедический словарь. – М., Советская энциклопедия, 1987. – 752 с.

IV. Internet saytlari:

62.Letter from Jack London. – N.Y., 1965. [http://en.wikipedia.org/wiki/Jack London](http://en.wikipedia.org/wiki/Jack_London).

63. Scorn of Women.- N.Y., Macmillan. [http://en.wikipedia.org/wiki/Jack London](http://en.wikipedia.org/wiki/Jack_London).

64.William,James "Jack London's Works by Date of Composition". The Jack London Online Collection, 2010 y.

65.London, Joan “Jack London and His Times”, New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.

66.London,Jack; Taylor J. Golden “A Literary history of the American West” Fort Worth: Texas Christian University Press, 1988 y.

67.London,Jack “Martin Eden”, London, Project-Gutenberg book, 2010 y.

68.London,Joan “Jack London and His Times”, New York: Doubleday, Doran & Company. Inc, 1939 y.

69.London,Charmian “The Book of Jack London”, Volume II, Kessinger, 2009 y.

70.www.google.com

71.www.literarylives.com

72.www.writershop.com